

## O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Farzandim she'r yodlashni yoqtirmaydi. Nega yodlamaysan, desam, adabiyot o'qituvchimiz doim ham so'rab o'tirmaydi, deydi. Keyin bilsam, o'qituvchisining o'zi ham darsda she'r o'qimas ekan. Adabiyot o'qituvchilarining nomiga yarashmaydigan gap — bu! Bolalarning she'riyatga oshno bo'lishida she'r o'qiydigan ustozlarning o'rni katta.

4-bet

## Avval sharoit, keyin samara

*yoxud Bulung'ur maktablaridagi kamchiliklar tuzatilmogda*

Maktab binosining tozaligi va dars jarayonidagi kamchiliklar yuzasidan maktab direktori va o'rinbosarlaridan tushuntirish xatlari olinib, tegishli intizomiy choralar ko'rildi.

8-bet

## Namangan viloyat hokimligi diqqatiga!

**Maktabdagi mahalla idorasi**

*yoxud "tekin tomosha"lar mashmashasi*

9-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

# Marifat

1931-yildan chiqq boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 7-avgust, chorshanba № 61 (9230)

Xalq ziyolilari gazetasi

## 14 536 nafar abituriyent imtihonga kelmadi



5-bet

## “Nosoz tarozi” bilan o'quvchi bilimini o'lchamang!



6-sinfda o'qiyotgan qizim shu yil mart oyida ingliz tili fanidan Toshkent shahri tumanlaridan birida o'tkazilgan bilimlar bellashuvida ishtirok etdi. Natijalar e'lon qilingach, qizim testlarning deyarli hammasini to'g'ri yechganini, ammo natija past chiqqanini aytib norozi bo'ldi. Masalaga oydinlik kiritish maqsadida bellashuvning hay'at a'zolariga murojaat qildim. Hay'at a'zolari test savollari va qizimning javoblarini taqdim etishdi. Savollar varaqasini qo'limga olishim bilan topshiriqlar matnida shakl jihatidan muammolar borligini darrov payqadim. Masalan, savollar orasida yetarlicha masofa yo'q edi, qolaversa, savollar varaqasida hatto sarlavha va bilimlar bellashuvi to'g'risida ma'lumot ham mavjud emas. Uni ko'rgan kishi biror norasmiy test varaqasi, deb o'ylashi ham mumkin. Xullas, mazkur bellashuv to'g'risidagi birinchi taassurotim — testga yuzaki yondashilgan.

3-bet

Reklama • e'lon



➔ Universitetga qabul qilingan talabalar 3+1 shaklida, ya'ni 3 yil Toshkentda, 1 yil esa Moskva shahridagi ko'hna va pedagogika sohasidagi eng nufuzli universitetda ta'lim oladilar.



## Moskva davlat pedagogika universiteti diplomini Toshkentda olish imkoniyatidan foydalaning!

➔ Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'zida ijobiy an'analar va zamonaviy fan yutuqlarini mujassamlashtirgan respublikamizning yetakchi ta'lim muassasasidir.

Sizlarni universitetimizda Moskva davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan Rus tili va adabiyoti qo'shma fakultetida bakalavriat ta'lim yo'nalishi asosida o'qishga taklif qilamiz.

➔ O'qish yakunida talabalar Double Degree shaklidagi TDPU va Moskva davlat pedagogika universiteti diplomiga ega bo'ladilar. Agar siz xalqaro nufuzdagi diplom va mutaxassislikni egalashni istasangiz, universitetimizga murojaat qiling!

**Abituriyentlardan hujjatlar 2019-yil 25-iyuldan 10-avgustgacha qabul qilinadi.**

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Mo'ljal: Chilonzor metro bekati. Murojaat uchun telefon raqami: (98) 310-63-31; elektron sayt: [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)





# Davlat dasturining ba'zi bandlari ijrosi kechikmoqda

2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha 2019-yil birinchi yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar muhokamasiga bag'ishlangan Komissiya majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari, Komissiya raisi Sodiq Safoyev olib bordi.

Unda Komissiya a'zolari, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi vakillari, mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari, BMTning Bolalar jamg'armasi — UNICEF xodimlari va jurnalistlar ishtirok etdi.

Davlat dasturi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor maqsadlariga to'liq erishishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar tizimidan iborat bo'lib, uning doirasida mamlakatimiz taraqqiyoti va yurt farovonligiga oid keng ko'lamli vazifalar hal qilinmoqda. Shu bois Dasturning har bir bandi to'liq ro'yoga chiqarilishiga erishish, buning uchun, ayniqsa, parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Dasturda ijtimoiy sohani rivojlantirish

yo'nalishlarida 100 ta band belgilangan bo'lib, ikkinchi chorakda yigirmata banddagi topshiriqlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha Komissiya huzuridagi monitoring guruhi tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasida Davlat dasturida ijrosi birinchi va ikkinchi choraklarda ta'minlanishi belgilangan o'nta banddagi topshiriqlar hamon bajarilmagani aniqlandi. Shuningdek, ijrosi yil davomida bajarilishi belgilangan olitta banddagi vazifalar yuzasidan olib borilayotgan ishlarda sustkashlikka yo'l qo'yilayotgani ma'lum bo'ldi.

Xususan, Dasturning tegishli bandida 2019-yil 1-iyunga qadar keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida maxsus vakolatli davlat organini tashkil etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni loyihasi tayyorlani-

shi belgilangan. Ammo mazkur vazifa bajarilmagani majlisda tanqid qilindi.

Shuningdek, Dasturning tegishli bandida 2019-yilning 1-mayiga qadar aholiga ko'rsatilayotgan onkologik tibbiy xizmat sifatini oshirish va profilaktik tadbirlar qamrovini kengaytirish yuzasidan normativ-huquqiy hujjat loyihasi tayyorlanib, qabul qilinishi belgilangan. Biroq shu kunga qadar mazkur topshiriq ijrosi ta'minlanmagan. Bundan tashqari, Dasturda 2019-yil 15-fevralga qadar sanitariya-epidemiologiya xizmatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choralar yuzasidan normativ-huquqiy hujjat loyihasi tayyorlanishi belgilangan. Shu kunga qadar mazkur topshiriq ham oxirigacha bajarilmagani so'zga chiqanlar tomonidan qayd etildi.

Buxoro viloyatidagi Shoshilinch tibbiy yordam markazini zarur jihozlar bilan ta'minlash masalasi ham paysalga solinmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga turizm markazi sifatida qaraladigan bo'lsa, bu yerlarga kelgan sayyoh bilan favqulodda holat yuz berganda tez tibbiy yordam ko'rsatish sifati qanday ta'minlanadi?

Majlisda alohida urg'u berilgan yana bir masala — Davlat dasturida belgilangan yoshlar siyosatiga oid topshiriqlar ijrosi bo'ldi. Ta'kidlanganidek, Das-

turning 231-bandida "Yoshlar — ke-lajagimiz" Davlat dasturi doirasida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan va bu maqsadga yil davomida 2 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilishi belgilanib, 50 mingdan ortiq yoshni ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan. 2019-yilning 1-avgust holatiga 1 ming 555 ta loyihaga 333,2 milliard so'm mablag' ajratilgan. Bu ko'rsatkich Dastur ijrosi bor-yo'g'i 15 foizga bajarilganini anglatadi.

Muhokama chog'ida bu borada o'tkazilgan o'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklar alohida ko'rib chiqilib, mutasaddi vazirlik va idoralar e'tibori ularni bartaraf etishga qaratildi.

Majlisda ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi bu va boshqa kamchiliklar keskin tanqid ostiga olinib, ularning sabablari atrofiicha tahlil etildi, bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar bildirildi. Shuningdek, O'zbekistondagi perinatal tizimini va tibbiy xizmat sifatini yaxshilash bo'yicha UNISEF takliflari xususida ma'lumot berildi. Ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari va yo'llari ko'rib chiqildi.

Muhokama yakuni bo'yicha Komissiyaning tegishli qarori qabul qilindi.

Nurillo NASRIYEV,  
O'ZA muxbiri

## O'quvchilarimiz Xalqaro matematika musobaqasida 14 ta medalni qo'lga kiritdi

1—6-avgust kunlari Janubiy Afrika Respublikasining Durban shahrida o'tkazilgan Xalqaro matematika musobaqasida (IMC — 2019) yurtimiz terma jamoasi a'zolari 14 ta medal va 2 ta faxriy yorliqni qo'lga kiritdi.



medal bilan taqdirlandi.

Shu bilan birga jamoaviy masala yechish musobaqasida O'zbekiston terma jamoasi bronza medalga sazovor bo'ldi.

Musobaqada ta'lim tizimi umumme'tirof etilgan Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur, Gonkong, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Ruminiya, Bolgariya kabi 41 ta

Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmati ma'lumotlariga ko'ra, musobaqada Qorako'l tumanidagi 1-IDUMning 7-sinf o'quvchisi Anvarjon Rahmatov oltin medalga sazovor bo'ldi. Peshku tumanidagi 18-maktabning 10-sinf o'quvchisi Jahongir Norboyev kumush medal, Qorako'l tumanidagi 1-IDUMning 9-sinf o'quvchisi Olimjon Olimov, Kitob tumanidagi 1-IDUMning 10-sinf o'quvchisi Eldor Ne'matov, Qorako'l tumanidagi 1-IDUMning 7-sinf o'quvchisi To'yumurod Qodirov va Urganch shahridagi 6-IDUMning 7-sinf o'quvchisi Bekzod Maqsudov bronza

mamlakatdan 500 nafardan ortiq eng iqtidorli o'quvchilar matematikaning kombinatorika, sonlar nazariyasi, geometriya bo'limlariga oid murakkab va nostandart masalalarni yechishda bellashdi.

Eslatib o'tamiz, Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan 2014-yildan boshlab mamlakatimiz o'quvchilari xalqaro matematika musobaqasida ishtirok eta boshladi. Mamlakatimiz o'quvchilari 2014-yildan hozirga qadar 3 ta oltin, 7 ta kumush, 4 ta bronza medalni qo'lga kiritgan.

Sh.NAMOZOV

## Mahalla raislari she'rxonlikda bellashdi

Marg'ilon shahridagi Erkin Vohidov nomidagi ijodkorlar bog'ida mahalla fuqarolar yig'ini raislari o'rtasida bo'lib o'tayotgan she'rxonlik ko'rik-tanlovining Farg'ona viloyat bosqichi g'oliblari aniqlandi. Unda tanlovning shahar va tuman saralash bosqichlarida g'olib bo'lgan she'riyatga oshno 19 mahalla raisi ishtirok etdi.

Ishtirokchilar dastlab O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov haykali poyiga gul qo'ydi, adib hayoti va ijodiy faoliyatini ko'rsatib beruvchi muzey faoliyati bilan tanishdi.

Ko'rik-tanlov ishtirokchilari she'riyat, adabiyot, kitobxonlikka bo'lgan mehr va mahorati, imkoniyatlarini ko'rsatib berishga harakat qildi. Ayniqsa, o'zbek mumtoz adabiyoti vakillarining hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq savollarga tezkor va aniq javob berishi, ular qalamiga mansub bo'lgan sara she'r, g'azal, ruboiylardan namunalar o'qishi she'riyatga oshno mahalla raislari borligidan dalolat berdi. Tanlovning ifodali o'qish shartida o'zbek va jahon klassik she'riyati durdonalaridan namunalar o'qildi.

Toshloq tumanidagi "Yangi chek" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Sharofiddin Boltaboyev birinchi o'rinni qo'lga kiritdi va tanlovning mamlakat bosqichida ishtirok etish imkoniga ega bo'ldi. Ikkinchi o'rin Oltiariq tumanidagi "Poloson" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Solijon Qirg'izov, uchinchi o'rin Rishton tumanidagi "Oq tomir" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Adhamjon Oripovga nasib etdi.

Bunday nufuzli ijodiy tanlovda g'olib bo'lish oson kechmadi, — dedi Sh.Boltaboyev. — She'riyat — ko'ngil mulki, dil malhami. U bilan oshno tutingan kishi ko'nglida ulug'vorlik, ijodkorlik bardavom bo'ladi. Yig'inimizda she'riyatga oshno bo'lgan oilalar, yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shu bois tez-tez she'rxonlik, adabiyot, kitobxonlik kechalarini o'tkazib turamiz. Bu borada ibrat bo'layotgan, yaxshi natijalarga erishayotgan oilalar, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelamiz. Bu odamlar bilan yaqin muloqotda bo'lish, mavjud muammolarni hamjihatlikda bartaraf etish imkoniyatini bermoqda.

Sirasini aytganda, mahalla raislarining ijodiy imkoniyati, salohiyatini ko'rsatib bergan ko'rik-tanlov yangi iste'dodlar, ijodkor raislarni kashf etgani bilan esda qoldi.

M.SULAYMONOV,  
O'ZA muxbiri



## Mulohaza

# “Nosoz tarozi” bilan o'quvchi bilimini o'lchamang!



(Davomi. Boshi 1-betda.)

Kamchiliklar birin-ketin ko'rina boshladi. Ba'zi savollar test tuzish talablari va qoidalariga umuman javob bermaydi. Ayrimlari misol sifatida keltirib o'taman.

**1-misol. You should have ... water every day.**

Tarjimasi: “*Sen bir kunda ... suv ichish kerak*”. Bu ochiq test, o'quvchidan bo'sh qoldirilgan joyga so'z topib qo'yish talab etiladi. To'g'ri javob: “2 litr” ekan.

**Izoh:** Mazkur test topshirig'i o'quvchining ingliz tilidagi bilimini o'lchamaydi. Uni hatto biologiya yoki tibbiyotga oid topshiriq deb ham bo'lmaydi. Chunki insonning bir kunda qancha suv ichishi kerakligi to'g'risida soha olimlari ham, fikrimcha, bir to'xtamga kelmagan. Qanday qilib 6-sinf o'quvchisi bu savolga javob bersin?! Test tuzuvchilar bu topshiriqni darsliklar matnida keltirilgan ma'lumotga asoslanib tuzgan bo'lishi mumkin. Lekin shunday bo'lgan taqdirda ham, ingliz tiliga oid testda bunday savolning berilishi test tuzish talablari mutlaqo javob bermaydi. Agar darsliklar matnida shu ma'lumot berilgan bo'lsa, unda bu test topshirig'i o'quvchining ingliz tilidagi bilimini emas, xotirasini baholashga mo'ljallangan. Bu kabi muammolar, ilmiy til bilan aytganda, testning *konstruktiv validlik*, ya'ni asosini qurish talabida butunlay zid hisoblanadi. Konstrukktiv validlik tamoyili testlarning tarkib jihatidan faqat bitta konstruksiyani, ya'ni muayyan fan bo'yicha bilimni yoki **biror maxsus ko'nikmani** baholashga qaratilishini talab qiladi. Keyingi misolga e'tibor bering:

**2-misol. China is in ...**

- A) Africa B) Central Asia  
C) Asia D) Europe

**Izoh:** Bu topshiriq tarjimaga muhtoj emas. Unda Xitoy qaysi qit'ada joylashgani so'ralayotgani aniq. Bir qarashda savolda muammo yo'qday tuyuladi. Lekin mutaxassis nazari bilan qaraganda, unda ikkita jiddiy kamchilik mavjud. *Birinchi*dan, ushbu test o'quvchining ingliz tilidagi emas, balki geografiya fani bo'yicha bilimini sinashga mo'ljallangan. Bu yana konstruktiv validlik tamoyiliga oid kamchilik. *Ikkinchi*dan, ushbu savol tuman miqyosidagi bellashuv uchun juda

oson hisoblanadi. Bu muammo testning ishonchligiga o'ta salbiy ta'sir o'tkazadi. O'zingiz o'ylab ko'ring, axir bu test savoliga ingliz tilini bilmaydigan odam ham javob berishi mumkin-ku! Bilimlar bellashuvda tushadigan test savollarining qiyinlik darajasi sal yuqoriroq bo'lishi kerak, chunki bunday bellashuvda maktab miqyosida g'olib bo'lgan o'quvchilar qatnashadi. Bu kabi savollar tanlov qatnashchilarini saralashda samara bermaydi.

**3-misol. Do you have ... potatoes?**

- A) some B) any  
C) no D) anything

Ushbu test topshirig'ida ikkita to'g'ri javob mavjud: A va B, chunki ingliz tilida holatga qarab mazkur kontekstda **some** va **any** so'zlarining ikkalasi ham ishlatilishi mumkin. Ingliz tili mutaxassislari buni juda yaxshi biladi. Lekin negadir hay'at a'zolari bu haqiqatni tan olgisi kelmadi. Bilimlar bellashuvda qo'llanilayotgan test topshiriqlarida bu kabi qo'pol xatolar mavjudligi sinovning adolatli tarzda o'tkazilmayotganidan dalolatdir. Testlar o'z xususiyatidan kelib chiqib, bilimlar tarozisi vazifasini bajarishi kerak. Bu tarozi nosoz bo'lib, unda yuqorida ko'rsatilgani kabi muammolar ko'p bo'lsa, g'oliblarni adolatli tarzda tanlab olish vositasi sifatida ishonib bo'lmaydi.

Bilimlar bellashuvi, fan olimpiadasi va boshqa shu kabi rasmiy baholash yoki saralash amaliyotlarida foydalaniladigan test topshiriqlari testologiya talablari mos ravishda ishlab chiqilishi shart. Mazkur talablar dunyodagi ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar tajribasida ko'p yillik sinovlardan o'tgan. Testologiya talablari bo'yicha testlarning sifati, asosan, *validlik* va *ishonchlilik* tamoyillari asosida tekshiriladi. Bu ikki tamoyil bo'yicha tekshiruvdan o'tishi uchun testlar maxsus

texnologik jarayonlardan o'tishi kerak. Bular qisqacha quyidagilardan iborat:

**Birinchi**dan, **testning spetsifikatsiyasini ishlab chiqish**. Bu bosqichda testning maqsadi, topshiriqlarning murakkablik darajasi, ta'lim dasturlari va standartlariga aloqadorligi, testning tarkibiy strukturalari, test uchun ajratilgan vaqt, test topshiruvchilarning kontingenti ta'rif va boshqa ko'plab ma'lumotlar ishlab chiqiladi. Aslida, bu o'ta murakkab bosqich, negaki u test o'tkaziladigan soha bo'yicha yetuk mutaxassislar jalb qilishni va ularning testolog mutaxassis bilan hamkorlikda testning tarkibi va xususiyatlari bo'yicha asosiy talablarni ishlab chiqishni talab qiladi.

**Ikkinchi**dan, **test tuzuvchilarni tanlab olish va ularga testologiya asoslari bo'yicha trening o'tkazish**. Bu trening testning xususiyati va maqsadlariga qarab moslashtirilishi mumkin. Trening, tabiiyki, testologiya bo'yicha bilimga ega bo'lgan mutaxassis tomonidan o'tkazilishi kerak. Test tuzuvchilar maxsus tanlov asosida saralab olinishi lozim. Chunki har qanday odam ham test tuzuvchi bo'lolmaydi. Test tuzish uchun muayyan fan bo'yicha ko'pyillik tajribaga ega bo'lgan va ijodiy fikrlaydigan o'qituvchilar zarur. Ayniqsa, chet tillar va ijtimoiy fanlardan test tuzuvchilardan bunday ko'nikmalar ko'proq talab etiladi. Chunki bu fanlardagi testlarda matnlardan foydalaniladi. Bu matnlarni tanlash, ulardan to'g'ri foydalanish alohida qobiliyat va ko'nikmalarni talab qiladi.

**Uchinchi**dan, **test tuzish jarayoni**. Treningni muvaffaqiyatli tamomlaganlar test tuzish amaliyotini boshlashlari mumkin. Test tuzishda eng asosiy tayanch yo'riqnomasi bu — test spetsifikatsiyasi hisoblanadi. Test tuzuvchilar spetsifikatsiya talablari doirasidan chiqib ketmasligi lozim. Test tuzuvchilar mehnatining yaxshi rag'batlantirilishi testning sifatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

**To'rtinchi**dan, **aprobatsiya jarayoni**. Test tuzish jarayonining eng muhim bosqichi bu — sinovdan o'tkazish jarayonidir. Aprobatsiyada test topshiriqlari kelajakda shu testni topshirishi ko'zda tutilgan kontingent vakillari orasida o'tkazilishi lozim. Aprobatsiya natijalari maxsus statistik tahlildan o'tkaziladi. Bu tahlil test topshiriqlarining ko'plab muammoli tomonlarini ochib beradi. Topilgan kamchiliklar bartaraf etilib, test qayta aprobatsiyaga qo'yiladi. Shu tariqa test topshiriqlari sinovdan yaxshi o'tmaguncha qayta ishlanaveradi va qayta aprobatsiya qilinaveradi.

Afsuski, bizda test tuzish amaliyotiga yuzaki qarash odat bo'lib qolgan. Holbuki, testlar ta'lim jarayonining deyarli barcha bosqichlarida ishlatib kelinmoqda. Bilimlar bellashuvi, fan olimpiadasi va boshqa shu kabi muhim sinovlarda test topshiriqlaridan foydalanishda o'ta jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Davlat test markazi tomonidan ishlab chiqilayotgan test topshiriqlari ham bu muammolardan xoli emas.

Mazkur bosqichlar test tuzishning eng oddiy texnologik jarayoni hisoblanadi. Dunyoning yetakchi test o'tkazish tashkilotlari bundan-da murakkab jarayonlarni yo'lga qo'ygan. Masalan, TIMSS, PISA kabi xalqaro baholash amaliyotlarida foydalaniladigan testlar yillar davomida ishlab chiqiladi. Eng murakkab test tuzish texnologiyalari oliy ta'lim muassasalariga kirish testlariga tatbiq etiladi. Masalan, Amerikaning “Educational Testing Service” tashkiloti kirish testlarini ishlab chiqish uchun 250 dan ortiq yetakchi olimlarni jalb qilgan. Bu olimlar testlarning validligi va ishonchligi muammolari bilan doimiy ravishda shug'ullanadi. Test tuzish talablari ham shu olimlar tomonidan ishlab chiqiladi. Xullas, rivojlangan davlatlar testlarni ishlab chiqish amaliyotiga o'ta jiddiy yondashadilar. Chunki ular iqtidorli yoshlarni tanlab olish davlatning kelajakdagi kuch-qudratini belgilab beradigan eng asosiy omil ekanligini tushunib yetgan.

Afsuski, bizda test tuzish amaliyotiga yuzaki qarash odat bo'lib qolgan. Holbuki, testlar ta'lim jarayonining deyarli barcha bosqichlarida ishlatib kelinmoqda. Bilimlar bellashuvi, fan olimpiadasi va boshqa shu kabi muhim sinovlarda test topshiriqlaridan foydalanishda o'ta jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Davlat test markazi tomonidan ishlab chiqilayotgan test topshiriqlari ham bu muammolardan xoli emas. Testologiya talablari bo'yicha ishlab chiqilmagan va yuqoridagi kabi ko'plab xatoliklari mavjud bo'lgan testlar bilan bolalarimiz bilimni baholashimiz — bu o'z oyog'imizga bolta urish bilan barobar. Testlar qancha sifatli bo'lsa, iqtidorli va bilimli yoshlarga shuncha ko'p imkoniyat bergan bo'lamiz.

Testlarning sifati va ulardan foydalanishda yuzaga kelayotgan muammolarga ta'lim vazirligining va mutasaddi tashkilotlarning jiddiy yondashuvi talab etiladi. Masala tizimli ravishda hal etilishi lozim. Ta'lim tizimida ishlatiladigan testlarni ishlab chiqish amaliyotini testologiya talablari asosida mukammal tarzda tartibga solish kerak. Buning uchun zarur bo'lsa, normativ hujjatlar, talablar va standartlar ishlab chiqilishi talab etiladi. Test tuzish ko'nikmalarini o'rgatish malaka oshirish institutlari dasturiga kiritilishi ayni muddaodir. Bundan tashqari, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalar dasturlariga baholash va test tuzish (educational assessment and testing) ta'lim yo'nalishlari kiritilishi kerak.

Bilimlar bellashuvi, fan olimpiadasi va boshqa shu kabi rasmiy baholash va saralash amaliyotlariga faqatgina maxsus treningdan o'tgan test tuzuvchilar jalb qilinishi maqsadga muvofiq. Treningdan muvaffaqiyatli o'tgan test tuzuvchilarga maxsus sertifikat berish tartibi yo'lga qo'yilsa, nur ustiga nur bo'ladir.

Abdurashid SOLIJONOV,  
testolog mutaxassis



# “Bolanzning navbati qachon keladi?”

Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va BMT Taraqqiyot dasturi hamkorligidagi “Innovatsiyalar va boshqaruv yechimlari” laboratoriyasida maktabgacha taʼlim muassasalariga qabul jarayonini takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar muhokama qilindi. Mazkur tavsiyalar maktabgacha taʼlim muassasalariga qabul jarayonini soddalashtirish, korrupsiyaga imkon qoldirmaslik hamda fuqarolarga qulaylik yaratishga qaratilgan.

Loyiha mualliflari davlat maktabgacha taʼlim muassasalariga qabul jarayonining mavjud holatini tahlil qilib, bugungi kunda Davlat xizmatlari markazlari orqali boʻsh joyga yoʻllanma olish uchun 16 ta bosqichdan oʻtish zarurligini aniqlashdi. Bu jarayonda elektron raqamli imzo sotib olish majburiyati, boʻsh joylar haqida maʼlumotlarning oʻz vaqtida yangilanmasligi va haqiqatga mos emasligi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va “OpenEMIS” axborot tizimi oʻrtasidagi tafovutning mavjudligi aholining noroziligiga sabab boʻlib kelgan. Bundan tashqari, arizachilarning navbati kelgan yoki kelmaganini bilish uchun bir necha marotaba Davlat xizmatlari markaziga borib kelishlariga toʻgʻri kelmoqda.

— Meʼyoriy-huquqiy bazadagi ayrim kamchiliklar bartaraf etilmasa, muammo

hal boʻlmaydi, — deydi loyiha muallifi Bunyod Hoshimxoʻjayev. — Inson omili, yaʼni tuman maktabgacha taʼlim boʻlimlari masʼul xodimlarining yoʻllanma berishdagi ishtirokida butkul chek qoʻyish kerak. Bogʻchalarda AKTning qisman qoʻllanilishi, muassasaga qabul qilingan va u yerdan ketgan bolalar haqidagi maʼlumotlar bazasining yoʻqligi, harakatlarning muvofiqlashtirilmagani ham muammolar keltirib chiqarmoqda.

Loyiha mualliflari bolalarni maktabgacha taʼlim muassasalariga joylashni yanada takomillashtirish maqsadida elektron raqamli imzo olishni bekor qilishni taklif etishmoqda. Shuningdek, maktabgacha taʼlim muassasalariga qabul jarayonida imtiyozlardan foydalanuvchilar toifasini kamaytirish lozimligiga ham alohida urgʻu berildi. Faqat ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga

imtiyozlarni saqlab qolish zarurligi qayd etildi.

Tizimning mukammal ishlashi uchun faqat tashkiliy jihatlar emas, balki qabulga yoʻllanma berish jarayonining texnik tomoniga ham alohida ahamiyat qaratish lozim. Buning uchun OpenEMIS tizimi va bu tizimni Yagona portal bilan muvofiqlashtirish ustida dasturchilar ishlashi talab etiladi. Bundan tashqari, FHDY maʼlumotlar bazasidan bola toʻgʻrisida aniq maʼlumotlar olish imkonini yaratilishi kerak. Shuningdek, arizachilarning Davlat xizmatlari markazlariga tinimsiz qatnovining oldini olish uchun bogʻchaga navbatning holatini SMS-xabar joʻnatish orqali bilish imkoniyatiga ega boʻlishlari lozim.

Bitta arizachi toʻrttagacha maktabgacha taʼlim muassasasiga navbatda turishiga sharoit yaratilishi ham muammoning ancha tez hal etilishiga koʻmak beradi. Bunda bittasi asosiy, qolganlari qoʻshimcha imkoniyat sifatida koʻriladi.

Maktabgacha taʼlim muassasalariga yoʻllanma olish tartibini takomillashtirish orqali Davlat xizmatlari markaziga qatnov soni 6 tadan 2-3 taga qisqaradi, yoʻllanma olish bosqichlari kamayib, hujjatlarni toʻldirish soddalashtadi, avtomatlashtirish jarayonining takomillashtirilishi, oʻz navbatida, korrupsiyaning oldini oladi.

Nazokat AZIM

Tizimning mukammal ishlashi uchun faqat tashkiliy jihatlar emas, balki qabulga yoʻllanma berish jarayonining texnik tomoniga ham alohida ahamiyat qaratish lozim.

## Sirli tarix izidan

Oʻzbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi tomonidan Termizda Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi va Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi koʻmagida “Oʻzbekiston — sivilizatsiya va yoʻllar chorrahasi: imperiya, din, madaniyat” mavzusida madaniy meros haftaligini oʻtkazish rejalashtirilgan.

Tadbir toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri oʻrinbosari A.Abdurahimov va boshqalar yigʻilganlarga soʻzlab berdi.

Haftalikda Oʻzbekiston tasviriy sanʼat galereyasida xorijlik olimlarning koʻplab soʻrovlariga binoan mustaqillik yillarida birinchi marta Markaziy Osiyoda I asr oʻrtalarida paydo boʻlgan sirli, yetarlicha oʻrganilmagan va bir vaqtlar qudratli boʻlgan Kushon imperiyasi davriga oid noyob asarlar namoyish etiladi. Surxondaryo viloyatidagi Dalvarzintepa qadimgi shahar qazilmalarida topilgan afsonaviy “Dalvarzin oltini”ning namoyishi koʻrgazmaning oʻziga xos jihati boʻladi.

24-avgust kuni haftalik ishtirokchilari va mehmonlari Termiz shahriga yoʻl oladi. “Oʻzbekiston — sivilizatsiyalar chorrahasida” arxeologik konferensiyasi doirasida dunyoning taniqli sharqshunoslaridan maʼruzalar tinglanadi.

Bundan tashqari, haftalikda Kushon imperiyasi tarixiga bagʻishlangan hujjatli film va kitoblarni taqdimoti oʻtkazilishi rejalashtirilgan.

Eslatib oʻtamiz, “Oʻzbekiston — sivilizatsiya va yoʻllar chorrahasi: imperiya, din, madaniyat” madaniy meros haftaligi 22—27-avgust kunlari Toshkent, Termiz, Buxoro va Samarqandda boʻlib oʻtadi.

Asolat AHMADQULOVA,  
“Maʼrifat” muxbiri

## Suratga koʻchgan yoz

Oʻzbekiston Badiiy akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi tomonidan “Yoz jilvasi” nomli koʻrgazma tashkil etildi. Unda ona tabiatimizning naqadar goʻzalligi, saxiyliigi rang-barang boʻyoqlar orqali yuksak mahorat bilan tasvirlangan.

— Ranglar tilsimining siri shundaki, u mahoratli rassom qoʻlida ming xil jilvalanadi, — deydi tomoshabinlardan biri Bibinaz Qayipova. — Asl tabiatga oʻxshash asl manzaralarni koʻrganda kishining bahri-dili ochiladi. Isteʼdod asli — goʻzal-

Isteʼdod asli — goʻzallik. Goʻzallik esa qalban his qilinadigan tuygʻu. Rasmlarga boqqanda betakror bir ohang sizib chiqayotgandek, ranglar tilga kirayotgandek boʻladi.

lik. Goʻzallik esa qalban his qilinadigan tuygʻu. Rasmlarga boqqanda betakror bir ohang sizib chiqayotgandek, ranglar tilga kirayotgandek boʻladi. Koʻrgazmadan joy olgan 20 dan ortiq yoz manzaralari ham ana shunday ulkan mehnat mahsuli, ijodkorning koʻnglidan koʻchirma. Asarlarda har bir rassomning oʻziga xos uslubi, mahorati koʻrinadi. Ular orasida Islam Jaqsiboyev, Temur Sulaymanov, Sharapat Daoʻboyevning mehnatlari alohida eʼtirofga munosib.

Aslida, sanʼatni anglash — buyuk sanʼat. Negaki goʻzallikka oshno qalblarda faqat ezgulik gullaydi.

Nesibeli MAMBATIRZAYEVA  
“Maʼrifat” muxbiri



Oʻqituvchi

nimani

oʻylaydi?

✓ Bir direktorning hasratini eshitib qoldim. Maktabning hududi 3 gektar boʻlib, atigi 3-4 nafar texnik xodimi bor ekan. “Shunday katta joyni ishchilarsiz eplab boʻlmayapti. Shuning uchun oʻqituvchilar mehnatidan foydalanaman. Axir ular ham shu tashkilotda ishlaydi-ku”, deydi mansabga kelganidan buyon birovta ham tayinli ish qilmagan “uddaburon” direktor... Vazirlikning tinmay direktor tadbirkor, menejer boʻlishi kerak degan gaplari goʻyo unga tegishli emasdek...

**QISHLOQLIK OʻQITUVCHI**

✓ Boshlangʻich sinfda texnologiya fanini mutaxassislar oʻtishini taklif qilgan boʻlardim. Sababi yuqori sinfga oʻtgan oʻquvchilarning aksariyati oddiy elementlarni ham bajara olmayapti. Masalan, tikish, kviling, ushlagich tikish va boshqa shu kabi mavzular boshlangʻich sinflarda ham bor. Afsuski, baʼzi oʻquvchilarda bu haqida koʻnikma yoʻq. Bolalardan soʻrasam, biz buni oʻtmaganmiz, deyishadi. Texnologiya darsida ona tili, matematika yoki boshqa fan oʻtilgan ekan.

**Hafiza RASHIDOVA**

✓ Mart oyida oliy toifa olish uchun testga kirdim. Savollar u qadar murakkab emas edi. Bilmim bor oʻqituvchi testni oʻynab-kulib yecha oladi. Oʻqituvchilar orasida tarqaladigan har xil gaplar — aslida, BAHONA. Eng koʻp eshitgan gapim: “Savollar qiyin boʻldi”. Nima, sizningcha, savollar oson boʻlishi kerakmi? Testning murakkabligi yuqori emas, daʼvogarning darajasi past.

**Jaʼsur NURALIYEV**

✓ Farzandim sheʼr yodlashni yoqtirmaydi. Nega yodlamaysan, desam, adabiyot oʻqituvchimiz doim ham soʻrab oʻtirmaydi, deydi. Keyin bilsam, oʻqituvchisining oʻzi ham darsda sheʼr oʻqimas ekan. Adabiyot oʻqituvchilarining nomiga yarashmaydigan gap bu! Bolalarning sheʼriyatga oshno boʻlishida sheʼr oʻqiydigan ustozlarning oʻrni katta.

**R.MUHAMMEDOVA**

✓ Yozning jazirama kunlari ter toʻkib ishladim. Oromgohdagi oʻquvchilar bilan oʻtkazgan tadbirimni “Telegram”dagi bir kanalga joylamoqchi boʻldim. Kanal administratori 100 ta layk yigʻib bersangiz, sizga faxriy yorligʻimiz ham bor, dedi. Men xursand boʻlib, 120 nafar odamni guruhga qoʻshishga muvaffaq boʻldim. Tanishlarimga oʻz mehnatimni koʻrsatishga erishdim va faxriy yorligʻi oldim. Kanal aʼzolari ham koʻpaydi...


**Mohidil XUSHVAQTOVA**



Uchta universitetga hujjat topshirish — o'qishga tayyorlanmasang ham, bir amallab o'tib ketaverasan, degani emas ekan.

# 14 536 nafar abituriyent imtihonga kelmadi

Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari davom etmoqda. 6-avgust kuni birinchi smenada o'tkazilgan test sinovlariga oid raqamlar quyidagicha bo'ldi: DTM bergan ma'lumotlarga ko'ra, respublikadagi 66 ta binoda imtihonlar soat 8:00 da boshlanib, 11:20 da to'liq yakunlandi. Unda 35 871 nafar abituriyent qatnashishi belgilangan edi. Shundan 34 762 nafari o'z omadini sinab ko'rdi. 889 nafar abituriyent turli sabablarga ko'ra imtihonda ishtirok etmadi.



Bundan tashqari, belgilangan tartib-qoidalarni buzgani sababli 19 nafar abituriyent test sinovlaridan chetlatildi. 5-avgust holatiga ko'ra esa, ikki smenada 71 340 nafar o'g'il-qiz qatnashishi belgilangan edi. Shundan 69 620 nafari talabalik uchun kurashdi. 1 662 nafar abituriyent turli sabablarga ko'ra kelmagan bo'lsa, 21 nafari hududga kirish joyida, 37 nafari qoidalarni buzgani uchun jarayonning o'zida test sinovlaridan chetlatildi.

Ko'pchilik talabalikni oltin davr deydi. Abituriyentlik davri-chi? Uni nimaga qiyoslash mumkin? Inson hayotida duch keladigan imtihonlarning eng mashaqqatlisi, yoshlar va ularning yaqinlaridan tog'day sabr, temirdek matonat talab qiladigan vaqt ham aynan shu davrdir. Imtihon o'tkazilayotgan binolar oldiga borsangiz, bu davrning naqadar hayajonli va qiyinligini yana bir bor his qilassiz. Ayniqsa, abituriyent o'g'li yoki qizini, singlisi yoki ukasini qo'llab-quvvatlash, dalda bo'lish uchun kelganlarining hayajoni imtihon topshiruvchilarnikidan kam emas. Ba'zi ota-onalar bu yilgi test sinovlaridan umidi kattaligini bildirsa, ba'zilarining tashkiliy masalalardan ko'ngli uncha to'lmagan.

— O'g'lim bu yil O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga hujjat topshirdi, — dedi hazorasplik Gulnora Ahmedova. — Kecha bo'lib o'tgan amaliy imtihonning yugurish turidan o'g'lim muvaffaqiyatli o'tolmadi. Chunki soat ertalabki 6:00 da chaqirilgan o'g'lim 13:30 da imtihonga kirdi. Tushgacha kutib charchagan bolamning kun tikkaga kelganda issiqdan yugurolmay, yuragi yomon bo'layozdi. Agar bu kabi sinovlar usti yopiq stadionlarda yoki kunning qulay payti tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Suzish havalalaridagi sharoitlar juda yaxshi ekan. Lekin nazoratchilarning bu sport turi bo'yicha mutaxassis emasligi

abituriyent va kuzatuvchi o'rtasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi...

Shu kabi fikrlarni yana bir necha ota-onalardan eshitdik. Shu o'rinda mutasaddilardan keyingi yillardagi imtihonlarni tashkil etish va o'tkazishda shu kabi kamchiliklarga e'tiborli bo'lishlarini so'raymiz.

— Bu yil uchta oliy ta'lim muassasiga hujjat topshirish imkoniyati berilgani bizni juda xursand

qildi, — dedi chinovlik abituriyent Aziz G'oyipov. — Lekin, shuni anglab yetdimki, uchta universitetga hujjat topshirish — o'qishga tayyorlanmasang ham, bir amallab o'tib ketaverasan, degani emas ekan. Baribir bilimni kuchlilargina talaba bo'ladi, deb o'ylayman...

Ko'pchilik test sinovlarida omad katta rol o'ynashiga ishonadi. Balki bu fikrda jon bordir. Lekin, bizningcha, quruq omadning o'zi bilan 100 dan ziyod ballni to'plashning iloji yo'q. Internet tarmoqlarida tarqalayotgan turli videoyozuvlarni ko'rib esa xafa bo'lib ketasan, kishi. Nazorat va shaffoflik yildan yilga kuchaytirilayotganiga qaramay, o'z bilimiga emas, turli noqonuniy yo'llarga ishonayotgan yoshlar talaba bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lmoqda. Test sinovlarining yettinchi kuni o'z bilimini sinagan abituriyentlarning natijalari esa kishini quvontiradi. Xususan, bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha eng yuqori ball quyidagicha:

a) kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha: Toshkent moliya instituti, 5230100 — Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) 189,0 ball;

b) sirtqi ta'lim shakli bo'yicha: 5230100 — Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) 183,5 ball;

d) kechki ta'lim shakli bo'yicha: 5231006 — Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik: xitoy ta'lim yo'nalishi 122,0 ball.

Eslatib o'tamiz, test sinovlarining sakizinchisi kunigacha jami 570 720 nafar abituriyent qatnashishi kerak edi. Shundan 555 752 nafari imtihonlarda ishtirok etgan. 14 536 nafari turli sabablarga ko'ra jarayonda ishtirok etmagan. 413 nafari esa sinovlardan chetlatilgan.

Sohiba MULLAYEVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

# O'zbekistonda ilk bora

Yurtimizda OTMLar soni birgina 2016-yilning o'zida 77 tani tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilga kelib ularning soni 111 taga yetdi. Xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talabning oshishi natijasida esa xorijiy OTMLarga ham qiziquvchilar soni yildan yilga ko'paymoqda. 2016-yilda xorijiy OTMLar soni 7 ta bo'lgan bo'lsa, 2019-yilda ularning soni 20 taga yetdi.

Bu yil OTMLarga hujjat topshirayotgan abituriyentlar soni avvalgi yillarga nisbatan qariyb bir yarim barobar ko'paygan. Shu bilan birga yoshlarning o'qishga ishtiyoqi, oliy ma'lumotli bo'lishga intilishi ortgan.

— So'nggi ikki yilda yurtimizda 13 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiali tashkil etildi. Yaqinda 10 ga yaqin davlatlarning nufuzli OTMLari bilan hamkorlikda Samarqand davlat universitetida yurtimiz tarixida ilk marotaba xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ta'lim beriladigan Xalqaro ta'lim dasturlari fakulteti tashkil etildi, — deydi Samarqand davlat universiteti Xalqaro ta'lim dasturlari fakulteti qabul komissiyasi mutaxassisi Nodirjon Boboqandov. — Bakalavriat uchun 7 ta yo'nalish bo'yicha har biriga 25 nafardan abituriyent qabul qilinadi. Magistratura uchun esa 6 ta yo'nalish bo'yicha har biriga 12 nafardan, faqat AQShning Yuta davlat universiteti bilan hamkorlikda tashkil qilingan ekologiya (yaylov ekologiyasi) yo'nalishiga qabul kvotasi 8 nafar deb belgilangan.

Fakultetda quyidagi nufuzli xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassislari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlanadi:

— Xitoyning Sian Jiaotong va Shansi universitetlari;

— Janubiy Koreyaning Sunchonxan universiteti;

— Isroilning Xolon texnologiya instituti;

— Hindistonning Oligarx Muslim universiteti;

— Germaniyaning Kiel universiteti;

— Fransiyaning Injeneriya maktabi;

— Rossiyaning Stankin Moskva davlat texnologiyalar va Sankt-Peterburg universitetlari;

— AQShning Yuta davlat universiteti.

Fakultetda materialshunoslik, sanoat matematikasi, mexatronika va robototexnika, geografik axborot tizimlari va masofaviy zondlash, muhandislik, axborot texnologiyalari, tarix, maktabgacha ta'lim, psixologiya kabi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlanadi. Bakalavriatning 1- va 2-bosqichlari va magistraturaning 1-bosqichini muvaffaqiyatli tamomlagan talabalar keyingi bosqichda xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettiradi. Xorijiy universitetlarda o'qishni muvaffaqiyatli tugatgan talabalar SamDU va xorijiy hamkor universitetlarning ikki tomonlama diplomiga ega bo'ladi. Fakultetda har bir yo'nalish bo'yicha qaysi davlat universiteti bilan hamkorlik o'rnatilgan bo'lsa, o'sha universitetning professor-o'qituvchilari o'z tajribalarini yurtimiz talabalari bilan bo'lshadi. Ularning orasidan eng iqtidorlilari xalqaro universitetlarda o'qishni davom ettirishi mumkin.

Fayoza AVLAYEVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

# Imtihon boshlandi!

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilgan ilk kunlardan boshlab, uning saflariga ma'nalan boy, jismonan baquvvat va intellektual salohiyatli bo'lgan yoshlarni jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu sababli ham Milliy gvardiya safini to'ldirish uchun umumiy o'rta ta'lim maktabidan boshlab uzluksiz kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan.

Shu tizimning dastlabki bosqichlaridan biri bu — harbiy-vatanparvarlik yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflardir. Unda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda respublikamizning har bir viloyatida 4 tadan — umumiy hisobda 56 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida mazkur sinflar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ushbu sinflarda ta'lim olishni istagan o'quvchi-yoshlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Milliy gvardiya qo'mondonligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qo'shma qaroriga muvofiq, 2019-2020-o'quv yili uchun 1—20-iyul kunlari hujjatlarini maxsus komissiyaga taqdim etgan edi.

5-avgust kuni esa ixtisoslashtirilgan sinflarga tanlovlar boshlandi. 6-sinfni muvaffaqiyatli yakunlagan, chuqurlashtirib o'qitish belgilangan o'quv fanlaridan muayyan qobiliyatini ko'rsatgan o'quvchilar tanlov natijalari asosida o'qishga qabul qilinadi.

Ixtisoslashtirilgan sinflarga tegishli fanlar bo'yicha o'tkaziladigan test hamda jismoniy tayyorgarlik sinovlari. Xalq ta'limi vazirligining hududiy boshqarmalari tomonidan tayyorlanadi va o'tkaziladi.

Test sinovlari umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari doirasida umumiy o'rta maktabda ta'lim olib boriladigan tilda o'tkaziladi.

Nomzodlarning ko'rsatkichlari teng bo'lib qolgan bittadan tarix, chet tili va jismoniy tayyorgarlikdan qo'shimcha sinov o'tkazilishi mumkin.

Imtihonlar 20-avgustga qadar davom etadi.

Tanlovning yakuniy natijalari 5 kun ichida komissiya tomonidan ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining e'lonlar taxtasiga osib qo'yiladi.

Tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilar 25-avgustga qadar ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining direktori buyrug'i asosida o'quvchilar safiga kiritiladi.

Nafosat ZAFAROVA,  
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi  
matbuot xizmati yetakchi mutaxassisi

Chunki soat 6:00 da chaqirilgan o'g'lim 13:30 da imtihonga kirdi. Tushgacha kutib charchagan bolam kun tikkaga kelganda issiqdan yugurolmay, yuragi yomon bo'layozdi. Agar bu kabi sinovlar usti yopiq stadionlarda yoki kunning qulay payti tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.



O'qituvchi kundaligidan

# Bolada qo'rquv bo'lsa...

Har bir o'qituvchi va sinf rahbari o'z ish faoliyati davomida suzishdan qo'rqadigan, emlashdan hadiksraydigan yoki tasodifiy tovushlardan cho'chib tushadigan o'quvchilarga duch kelgan. Ammo ko'p hollarda ayrim bolalar ota-onasi yoki o'qituvchisiga yoqish, ularni o'ylayotgan narsalari bilan chalg'itmaslik uchun qo'rquvni ichiga yutadi. Natijada jizzaki va jahldor odamga aylanadi.

20 yillik faoliyatim davomida shunga amin bo'ldimki, umuman qo'rqmaydigan bola bo'lmas ekan. Lekin me'yordan ortiq qo'rquv ruhiyatni kuchli shikastlasa, bola haqiqiy borliqni o'z holicha anglay olmaydi. Sinf rahbari boladagi qo'rquv qanday vaziyatlarda paydo bo'lishini anglab, unga nisbatan munosabatini o'zgartirishi, buning uchun maktab psixologi va ota-onalar ko'magiga tayangan holda turli-tuman pedagogik-psixologik

tadbirlarni o'tkazishi lozim. Aks holda, murg'ak qalbdagi qo'rquv mahv etilmas ekan, bolaning fikrlashi, fanlarni o'zlashtirishi va tevarak-atrofga bo'lgan munosabati yomonlasha boradi.

O'z kuzatuvimdan bir misol: sinfimdagi 9 yoshli o'quvchi qiz jirafadan qo'rqardi. Darslikdagi mavzumiz hayvonlarga borib taqalsa, shu kuni juda xomush o'tirar, hatto tanaffusga ham chiqmasdi. Ota-onasidan so'rab-surish-

tirib bilsam, qizaloq jirafa kechasi uyga kirib kelishi va uni yeb qo'yishidan qo'rqar ekan. Shu sababli uyqusida bosingirash, ishtaha yo'qolishi, hatto fikrlashida susayish ham kuzatildi. Mashg'ulotlar chog'ida shu o'quvchim bilan birga xonaki va yovvoyi hayvonlar rasmini chizib, unga hayvonlar haqida batafsil ma'lumot va tushunchalar berdim. Keyingi mashg'ulotlarimizga onasini ham taklif qildim. Jirafa beozor, o'txo'ronivor ekani haqida turli ma'lumotlar to'plab, ularga taqdim qildim. Bundan tashqari, jirafa ijobiy qahramon sifatida ishtirok etgan hikoyalar va multfilmlarni jamladim. Qizcha onasi bilan uyida ham mana shu multfilm va hikoyalarni tomosha qildi, o'qidi, tingladi. Bu tadbirlardan keyin qizaloq jirafa odamlar

yashaydigan joydan yiroqda bo'lishini va ularga yomonlik qilolmasligini anglab yetdi. Shundan buyon unda qo'rquv hissi ancha kamaydi.

Qo'rquvni bartaraf etishda amalga oshiriladigan ishlar ota-onaga ishtirokisiz kutilgan natijani berishi qiyin. Shuning uchun sinf rahbari ota-onalar bilan yaxshi muloqot o'rnatib, oilaning ahvolini (ota-onaga chet eldaligi, oilaviy ajrim) o'rganib, muammolarini qanday hal etish choralarini topishi lozim. Ba'zan sinf rahbari va maktab psixologi o'quvchilardagi shu kabi muammolarga yuzaki yondashadi. Bolaning fanlarni qanday o'zlashtirayotgani, sinf jurnali va nazoratdagi baholariga qarab xulosa chiqaradi. Aslida biz o'quvchilarning faqat yomon emas, yaxshi taraflarini ham ko'rishga odatlanishimiz lozim. Biz, o'qituvchilarning asosiy vazifamiz — ruhan sog'lom va barkamol farzandlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishdir.

Yulduz IBROHIMOVA,  
Pitnak shahridagi  
9-maktab o'qituvchisi

## Adabiyot ta'limida yangi usullar

Ta'lim jarayonining sifati uni tashkil etadigan o'quv materiallari, o'qitish metodikasi hamda baholash usullarining o'zaro to'g'ri ko'llanishi natijasida yuzaga chiqadi. Biz odatda biror narsani o'lchash uchun maxsus o'lchov vositalarini ishga solamiz. Masalan, uzunlikni o'lchash uchun chizg'ichdan yoki haroratni o'lchash uchun termometrdan foydalanamiz. Lekin shunday narsalar ham borki, ularni bevosita o'lchashning iloji yo'q, jumladan, bilimni ham. Ta'lim jarayonida baholashning maqsadi esa bilimni o'lchashdir. O'lchov jarayonida turli testlardan foydalanish mumkin.

Har qanday test o'rganilgan domen — bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini tekshirish uchun xizmat qiladi. Ko'p hollarda faqat muqobil javoblardan birini tanlash asosida bajariladigan topshiriqni test deb ataymiz. Lekin aslida tekshirishga xizmat qiladigan har qanday topshiriq turi test hisoblanadi. Test so'zining o'zi ham "tekshirmoq" ma'nosidan tashqari, "shaxsning bilimi, qobiliyati yoki ko'nikmalarini baholash uchun ishlatiladigan savollar, masalalar yoki amaliy mashg'ulotlar to'plami" degan ma'noni anglatadi. Test deganda faqat standart testlar, ya'ni an'anaviy qoliqlar asosida shakllangan muqobil javobli test topshiriqlarigina emas, o'rganilgan domen yuzasidan xulosa chiqarishga yordam beruvchi har qanday topshiriq tushunilishi maqsadga muvofiq. Bugun ta'lim jarayonida muqobil javobli — yopiq testlar bilan birga, muqobil javoblari berilmagan — ochiq testlar (savol, insho, og'zaki savol-javob va boshqalar)dan birdek foydalanilmoqda. Nostandard testlarning integrativ, adaptiv, mezonli-mo'ljal olish turlaridan aynan mezonli-mo'ljal olish testlari ayni maktab ta'limi mazmuni va mezonlariga mos bo'lib, o'quvchilar bilimini to'g'ri baholash, bo'shliqlar hamda ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlashda standart testlarga qaraganda samaralidir. Bunday testlarning samarasi adabiyot darslarida ko'rib chiqish ahamiyatli deb o'yladi. Chunki boshqa fanlardan farqli ravishda adabiyot fanidan olingan bilimni tekshirishga mo'ljalangan testlar o'quvchining xotirasini tekshirishgagina emas, badiiy asarlarni tushunish, ularni tahlil qilishga ham qaratilgan bo'lishi kerak. Negaki, qaysidir o'quvchi o'zining fan yuzasidan olgan bilimlarini og'zaki, boshqa biri esa yozma nutqida to'lig'icha ko'rsatib berolmasligi mumkin. Bunday o'quvchilarni baholashda barcha omillarni hisobga olib to'g'ri xulosa kelishda nostandard testlar barcha o'qituvchilar uchun qo'l keladi.

Adabiyot ta'limi, xususan, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonini o'qitish (5-sinf, III chorak), mavzu yuzasidan olingan bilimlarni baholashda bir qancha nostandard test turlaridan foydalanish mumkin. Ular asarning eslab qolinishi, tushunilishi, amaliyotda qo'llanilishi va tahlil qilinishi yuzasidan to'g'ri xulosalarga kelishga yordam beradi. Darslikda dostonning to'g'rilik ta'rifidagi 10-maqolati berilgan bo'lib, maqolat yuzasidan o'zlashtirilgan bilimlarni baholashda ko'p javobli nostandard testlardan foydalanishni quyida ko'rib o'tsak:

1-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarni jadvalda ular ma'nosini ifodalagan so'zning yoniga raqamlar orqali yozing.

1) to'g'rilik; 2) ovchi; 3) to'qay; 4) qo'rqmas; 5) ohang; 6) kaptarning bir turi, qirg'ovul 7) chizg'ich.

| So'z    | Ma'nosi |
|---------|---------|
| Daler   | 4       |
| Besha   | 3       |
| Nag'ma  | 5       |
| Tuzluk  | 1       |
| Mistar  | 7       |
| Saydgar | 2       |
| Durroj  | 6       |

Bu topshiriq nafaqat bilimni tekshirishga, balki o'quvchilarda mumtoz asarlarni lug'atlarsiz tushunish malakasini shakllantirishga ham yordam beradi.

Bunga hamohang ravishda o'quvchining asarni tushungani va amaliyotda qo'llay olishini tekshirish uchun ko'p javobli moslashtirish asosida javobini topishga qaratilgan quyidagi test topshiriqidan foydalanish mumkin. Agar o'quvchi asarni o'qigan, lekin tushunmagan bo'lsa ham ushbu testni bajarib yaxshi natija ko'rsata olmaydi.

2-topshiriq. Asardagi to'g'rilik, egrilik manbalari bo'lgan vositalarni ular mohiyatidagi xususiyatlar (darslikdagi xususiyatlarining ayni o'zi emas, ular asosida yuzaga keladigan xulosalar) bilan moslang.

| №  | Manba  | Uning asl mohiyati                                                                               |
|----|--------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Suv    | A To'g'ri bo'lgani uchun yuksak davralarga loyiq ko'rildi.                                       |
| 2. | Yashin | B To'g'ri bo'lgani uchun hayot atalmish ne'matdan bahramand, aksi bo'lganda o'limga yuz tutardi. |

|               |         |      |                                                                                                                                       |      |      |      |
|---------------|---------|------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|------|------|
| 3.            | Parvona | D    | Dunyoni nurga to'ldirishni niyat qilgan bo'lsa-da, maqsadiga egrilik ortidan erishishga uringani uchun yuksakliklardan mahrum bo'ldi. |      |      |      |
| 4.            | Nayza   | E    | Egriligi umrining zavoli bo'ladi.                                                                                                     |      |      |      |
| 5.            | Sham    | F    | To'g'riligi sabab boshqalarni ham to'g'ri ko'rsatadi.                                                                                 |      |      |      |
| 6.            | Sarv    | G    | To'g'riligi tufayli aziz narsalardan ham yuksakda.                                                                                    |      |      |      |
| <b>Javob:</b> |         |      |                                                                                                                                       |      |      |      |
| 1- F          |         | 2- D | 3- E                                                                                                                                  | 4- G | 5- A | 6- B |

Asarni tahlil qilishga oid bilimlarni tekshirishda esa asar sujeti ketma-ketligini joylashtirish hamda qahramon hayotida muhim o'rinni tutgan nuqtalarni aniqlash orqali amalga oshiriladigan testlardan foydalanish mumkin.

3-topshiriq. "Sher bilan durroj" hikoyasi sujetidan olingan voqealar ketma-ketligini aniqlab, tegishli raqamlarda kataklarga yozing. O'zingiz uchun sujet tizimida muhim o'rinni tutadi deb bilgan voqeani alohida belgilang.

- 1) sherning durroj bilan do'st bo'lishi;
- 2) durroj pandini eshitmas, o'zi bilan o'zi band edi;
- 3) sherning bolalarini chumolilar talab o'ldirardi;
- 4) durrojning rost ashulasi yolg'on deb o'ylandi;
- 5) durroj don bilan suvga aldandi.

|     |     |     |     |   |
|-----|-----|-----|-----|---|
| 3 → | 1 → | 2 → | 5 → | 4 |
|-----|-----|-----|-----|---|

Topshiriqning keyingi bosqichida o'quvchi hikoya sujetidagi asosiy voqea deb bilganlarini belgilab, "Eng muhim" usuli asosida uni izohlashi mumkin. Nazorat ishlari yoki yakunlovchi xulosa beruvchi baholash turlarida insho, og'zaki savol yoki muqobil javobli standart testlar domen to'g'risida nisbiy baholashga olib keladi. Chunki insho va og'zaki savol usuli orqali o'tilgan mavzularning barchasini tekshirish imkoniyati, standart testlar orqali esa o'rganilgan domenning tushunilish, tahlil qilish xususiyatlarini baholash imkoniyati mavjud emas. Bunday testlar o'quvchilarning kengroq fikrlashi, savollar yuzasidan ijodiy va chuqurroq yondashishga yordam beradi. O'rganilgan bilimlarga berilgan to'g'ri xulosa esa nafaqat ta'lim muassasalarida baholash tizimini namunalik tashkil etish, balki bilimdagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni tuzatishga yo'naltirish, ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Iroda SOBIROVA,  
Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU talabasi



Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!

## Obod qishloqlarning ko'rkam maktablari

Yangi o'quv yilini boshqalar qatori mingbuloqlik o'qituvchi va bolalar ham intiq kutmoqda. Ayniqsa, 1-, 6- va 14-maktab muallimlari-yu o'quvchilari o'qish boshlanishigacha qolgan kunlarni o'zgacha kayfiyat bilan o'tkazishyapti. Chunki "Obod markaz" va "Obod qishloq" dasturiga asosan belgilangan qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari mazkur ta'lim muassasalarida ham olib borilyapti.

Ta'lim rus va o'zbek tillarida olib boriladigan 14-maktab Mingbuloqdagi eng yirik ilm maskanlaridan. 1200 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan bu maktab binosi eskiligi tufayli mutasaddilar-u o'qituvchilarga rosa tashvish keltirgandi. Ohori ketib faqat sonda qolgan bino qishda isimas, xonalar yozda issiq, qorli-qirovli kunlari zax va sovuqligi tufayli o'qituvchilar-u o'quvchilar qishki kiyimda o'tirishardi. Ilma-teshik bo'lib ketgan tom har yili yamalaverganidan ustalarning joniga tekkandi. Hatto yomg'irli kunlarning birida bu yerda o'tkazilgan tadbirga taklif etilganlar qatori men ham shiftdan oqayotgan chakadan himoyalaniish uchun soyabon tutib o'tirishga majbur bo'lgandim.

— Nihoyat qiyinchiliklar ortda qoladigan bo'ldi, — deydi maktab direktori Marina Soy. — Ta'mirlashdan so'ng maktabimiz juda ko'rkam va shinam, barcha qulayliklarga ega maskanga aylandi.

Bo'yoq hidi ketib ulgurmagan sinfxonalar va yordamchi binolarni ko'zdan kechirdik. Ustalarining mahorati sifatli bajarilgan suvoq va pardoiz ishlarida

yaqqol namoyon bo'ldi. Zamonaviy eshik va romlar o'quv xonalari va ichki yo'lakka ham chiroyi, ham salobat baxsh etgan. Direktor hamrohligida muassasa hududini aylanib chiqdik. Tashqi yo'laklar va sport maydonchalari, futbol stadionida so'nggi obodonlashtirish ishlari bajarilyapti.

— 14-maktabni ta'mirlash uchun 1 milliard 69 million so'm mablag' ajratilgan edi, — deydi tuman xalq ta'limi bo'limining qurilish bo'yicha mutaxassisi Guli Aliboyeva. — Hozirgacha pudratchi tashkilot — "Obod-qurilishta'mirservis" MChJ tomonidan binoning tom qismini ta'mirlash ishlari to'liq bajarildi. Eshik-deraza o'rnatish yakunlandi. Santexnika va elektrmontaj ishlari tugallanish arafasida. Shu kunlarda tashqi suvoq va maktab hududini obodonlashtirish davom etmoqda. 40 nafardan ziyod quruvchi ta'mirlash ishlariga jalb etilgan. Maktab 1-avgustgacha to'liq ta'mirdan chiqadi.

"Obod qishloq" dasturiga binoan mukammal ta'mirlanayotgan yana bir ta'lim muassasasi — 6-maktabda ham pudratchi jamoa — "Barkamolfarovon-

servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati quruvchilari tomonidan belgilangan ishlarining 85 foizi uddalangan. Dasturga ko'ra mazkur maktabda 1 milliard 71 million so'mlik qurilish-ta'mirlash yumushlari bajarilishi zarur. Yaqin kunlarda foydalanishga topshirilishi mo'ljallangan ta'lim muassasasi "Bozorbo'shi" mahallasining eng ko'rkam inshootlaridan biriga aylanadi.

Mingbuloqning qo'shni Andijon bilan chegaradosh Chordana mahallasi hududida joylashgan 1-maktabda amalga oshirilgan ta'mirlash ishlarini ko'zdan kechirdik. Bu yerda "Stroy-meliomontaj" MChJga qarashli quruvchilar jamoasi 1-martdan buyon salmoqli ishlarni bajaribdi. Maktabning tashqi ko'rinishi darrov e'tiborni tortdi. Fasadni yangilashda o'ziga xos dizayn va uslubdan foydalanilgan bino ko'rkamligini oshirgan. Qurilish-pardozlash ishlari sifati ham talab darajasida. Maktab oshxonasi kabi qo'shimcha binolarda olib borilgan pardozlash ishlari, tashqi devor o'rni o'rnatilgan temir panjaralar uning ko'rimligini oshirishda alohida omil bo'lgan.

— Ta'mirlash ishlarini bajarish chog'ida loyiha talablariga rioya etish bilan birga mahalliy sharoitdan kelib chiqib ham yangiliklar kiritdik, — deydi quruvchilar yetakchisi Murodjon Jo'rayev. — Masalan, binoning ichki yo'laligiga marmar yotqizildi. Bu, polning nafaqat ko'rinishini yaxshilaydi, balki chidamliligini oshirib, xizmat

muddatini cho'zadi. Ham ichkarida mo'tadil harorat saqlanishiga ko'maklashadi.

Shu o'rinda quruvchilarning maktabga beg'araz yordam berayotganini ham alohida e'tirof etish lozim. Maktab qozonxonasi allaqachon ta'mirlab holga kelgan bo'lsa-da, loyihaga uni ta'mirlash kiritilmagan ekan. Pudratchi korxona uni o'z hisobidan ta'mirlashini bildirib, zarur butlovchi va ehtiyot qismlarni keltiribdi.

— "Meliostroymontaj" MChJ rahbarlaridan juda minnatdormiz, — deydi maktab direktori O'g'ilxon Dadajonova. — Qozonxona, maktab hovlisiga kirish yo'laklari va so'ritoklarni o'z hisoblaridan yangilashyapti. Shu kungacha 1 milliard 281 million so'mlik ish bajarildi. Har bir sinfxona toza suv, zamonaviy chiroqlar bilan ta'minlandi. Maktabimiz tumandagi eng ko'rkam va shinam ta'lim muassasalaridan biri, deya bema'lol ayto'larni.

Bu yilgi "Obod markaz" dasturida Mingbuloq tuman xalq ta'limi bo'limi uchun yangi ma'muriy bino qurish ham rejalashtirilgan. Jomasho'y shaharchasining markazida qad rostlayotgan yangi binoda ham qurilish ishlari jadal olib borilmoqda. Qariyb 1,5 milliard so'm mablag' evaziga bunyod etilayotgan mazkur inshoot ham yangi o'quv yilida foydalanishga topshirilishi belgilangan.

G'anisher AKBAROV,  
"Ma'rifat" muxbiri

Gazeta va gazetxon

## Bilimsiz o'qituvchidan o'quvchi nimani o'rganadi?

"Ma'rifat" gazetasi shu yil 51-sonida chop etilgan "O'qituvchining saviyasidan nega qoniqmayapmiz?" nomli maqolani o'qib, mulohazalarimni bildirmoqchiman. Xalqimiz azaldan muallimni e'zozlab kelgan. "Ustoz otangdan ulug'" degan naql kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q.

Haqiqiy o'qituvchi birinchi navbatda, o'z fanini mukammal biladigan, tajribali, aqlli, odobli, tarbiyali, farosatli, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, o'quvchilarni farzandiday sevadigan insondir.

Biroq oramizda oliy o'quv yurtini amal-taqal bitirgan yoki kimlarningdir yordami bilan diplom olib, nomigagina dars o'tatayotgan pedagoglar ham bor!

Maqolada 33 foiz o'qituvchi



"3", 41 foizi "2" baho olganini o'qib, dahshatga tushdim. Bu juda achinarli holat. Axir bu — 74 foiz o'qituvchi talabga javob bermaydi, degani-ku! Bilim saviyasi qoniqsiz o'qituvchi o'quvchiga nimani o'rgata oladi?!

Meni ham shu muammo anchadan buyon o'ylantirib ketardi. Lekin qo'limga qalam olib, ko'nglimdagi gaplarni yozishga jur'at qilolmayotgandim.

O'n olti yildan buyon maktabda ingliz tilidan dars berib kelyapman. Shu yillar mobaynida bir narsaga amin bo'ldimki, bilimli, tashabbuskor pedagogni hamma hurmat qiladi va qadrlaydi. O'qituvchining obro'si tushib ketishiga esa (achchiq bo'lsa ham aytay) aynan o'sha o'qituvchilarning o'zi aybdor!

O'quvchilar o'z fanidan, ya'ni maktab darsligidan savol berishsa-yu, muallim javob berolmasa, doskaga orfografik xato bilan yozsa, keyingi safar yana savol berganida bechora o'quvchiga "O'zing javobini topib kel, bo'lmasa "2" qo'yaman!" deb o'dag'aylasa, bunday pedagogni kim hurmat qiladi?!

Bejiz ustozlarni haqiqiy va soxtaga ajratmadim. Aynan soxta o'qituvchilarning bilimsizligi sababli savodi haminqadar avlod yetishib chiqyapti. Bunday o'qituvchilar juda qo'rqqoq bo'ladi. Masalan, maktabga birorta begona odam kelib qolsa ham,

"komissiya keldi", deb dir-dir titraydi.

Agar komissiya kelsa, ularga sichqonning ini ming tanga bo'p ketadi!

Endi o'qituvchilar nafaqat toifasiga qarab, balki bilim saviyasiga qarab maosh oladigan bo'ldi. Bugungi kunda bilimli, oliy toifali o'qituvchi ko'p maosh olyapti. Bu esa, o'z navbatida, boshqa o'qituvchilarga motivatsiya beradi.

Shunday ekan, barcha o'qituvchilar o'z ustida ishlab, fanini yanada kuchliroq o'rganish va o'rgatishga harakat qilishi shart.

O'qituvchi nafaqat ustoz, balki psixolog, kerak bo'lsa, o'quvchilar uchun ma'naviy ota-ona bo'lishi kerak. Ko'pincha o'quvchilarning dardini, muammosini tinglaganimda ba'zilar haqida "Savol bersak, o'zi bilmaydi, lekin bilmasligini tan olmaydi yoki savol berma, deb urishib tashlaydi", deyishadi. Savol bergan o'quvchining

og'zini yopish kelajakka xiyonat emasmi?!

Bilmaganini kitob yoki internetdan izlab topib, o'rganish kerak. O'quvchilarni ba'zan mendan ham o'zim bilmaydigan ma'lumotni so'rab qoladi. Bundan xursand bo'laman. Demak, ular darsimga qiziqyapti! To'g'ri tushuntirib, navbatdagi darsgacha o'sha ma'lumotni topib, o'rganib kelaman.

Hozir davlatimiz tomonidan o'qituvchilarga yanada ko'p imkoniyatlar yaratilyapti, ta'riflashga til ojiz. Men 2017-yili, o'ttiz besh yoshimda, ya'ni o'n to'rt yil ishlaganimdan keyin oliy toifa olganman.

Hurmatli hamkasblar, kimgadir gaplarim qattiq botgandir, kimningdir yarasini timagandirman. Ammo tan olaylik, bular achchiq haqiqat.

Mahbuba JABBOROVA,  
Nurobod tumanidagi  
2-maktab o'qituvchisi



## Mutasaddilardan javob keldi

Avval sharoit,  
keyin samarayoxud Bulung'ur maktablaridagi  
kamchiliklar tuzatilmoqda

Gazetamizning 2019-yil 20-aprel sonida "O'qituvchisi yo'q maktabga kompyuter kerakmi?" sarlavhali maqola chop etilgan edi. Unda 10-, 34- va 58- maktablardagi ayrim muammolar tanqid qilinadi. Xususan, qurilganiga bir yilgina bo'lgan maktab sport zalining yaroqsiz holatga kelib qolgani, o'quvchi soni maktab quvvatidan ortib ketgani natijasida 11-sinf o'quvchilarining mahalla binosida tahsil olayotgani, bir paytlar sport zalining yuvinish xonasiga mo'ljallab qurilgan joyda tashkil etilgan kutubxonadagi noqulayliklar, maktab kutubxonasining qiziqarli badiiy adabiyotlar bilan boyitilmagani, o'qituvchisiz o'tilayotgan darslar va hokazo muammolar sifatli ta'lim berish va 5 muhim tashabbusni amalga oshirishda katta to'siq bo'layotgani ta'kidlangan edi.



Tahririyatimizga ushbu maqola yuzasidan Bulung'ur tuman xalq ta'limi bo'limidan javob xati keldi. Umid qilamizki, muammolarga e'tibor qaratilishi natijasida bu kamchiliklar kelgusida batamom bartaraf etiladi.

"Ma'rifat" gazetasi 2019-yil 20-aprel kuni sonida chop etilgan "O'qituvchisi yo'q maktabga kompyuter kerakmi?" sarlavhali ostidagi maqoladagi holatlar bo'yicha Samarqand viloyati xalq ta'limi boshqarmasi mas'ul xodimlari tomonidan o'rganish o'tkazilib, ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Tumandagi 34-umumta'lim maktabining 270 o'rinni bino va sport zali 2008-yilda qurilgan. Maktab direktori O.Abdugayumov sport zalining pol qismi ta'mirlanishi uchun smetaga mablag' ajratilishini so'rab, tuman xalq ta'limi bo'limiga xat yozgan. Tuman xalq ta'limi bo'limi esa ushbu holat yuzasidan tuman moliya bo'limiga murojaat qilgan.

Ayni paytda maktabning sport zali to'liq ta'mirlanib, yangi o'quv yili uchun tayyor holga keltirilgan. Shuningdek, maktab kutubxonasida ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda.

Tumandagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi 210 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, o'tgan o'quv yilida 422 nafar o'quvchi tahsil oldi va navbatlilik 2,0 ko'effitsiyentni tashkil etadi. Hozir Investitsiya dasturi asosida maktabga 140 o'rinni qo'shimcha bino qurish ishlari boshlab yuborilgan. Maktabdan 100 metr uzoqda joylashgan, 2018-yilda qurib bitkazil-

gan mahalla fuqarolar yig'ini binosidan maktabda qurilish ishlari yakunlangunga qadar 11-sinf o'quvchilari foydalanib turishi uchun 1 ta xona ajratilgan.

Maktab binosining tozaligi va dars jarayonidagi kamchiliklar yuzasidan maktab direktori va o'rinbosarlaridan tushuntirish xatlari olinib, tegishli intizomiy choralar ko'rdi.

10-umumiy o'rta ta'lim maktabida 140 o'rinni qo'shimcha bino qurilishi nihoyalani, binoning ichki qismiga eshiklar o'rnatish va devorlarga rang berish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, maktabdagi 14 ta kompyuterni internet tarmog'iga ulash uchun amaliy yordam so'rab tuman hokimligiga xat bilan murojaat qilindi.

Yangi o'quv yilidan maktab o'quvchilari uchun yangi binoda kutubxona to'liq ishga tushadi. Gazeta va jurnallarni yetkazib berish bo'yicha tuman matbuot uyushmasi bilan shartnoma tuzildi.

Tumandagi 58-umumiy o'rta ta'lim maktabida kompyuter xonasi va sport zali qurilishi 2019—2022-yillarga rejalashtirilgan. Maktabning ikkinchi binosini ta'mirlash, partalarini almash-tirish, kutubxonani badiiy adabiyotlar bilan boyitish ishlari amalga oshirilmoqda. Yangi o'quv yilida maktabni kompyuterlar bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Ish vaqtida joyida bo'lmaganligi sababli maktab rahbarlari va o'qituvchilaridan tushuntirish xatlari olinib, tegishli intizomiy jazo choralari ko'rilgan.

Kelgusida bu kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik maqsadida tumandagi barcha maktab direktorlari ogohlantirildi".

"Ma'rifat" gazetasi 2018-yil 19-sentabr sonida Farg'ona viloyati Quva tumanidagi 50-maktab filialining yer maydoni tadbirkor tomonidan noqonuniy egallab olingani haqida maqola e'lon qilingan edi. Oradan besh oy o'tsa ham, bu masala yechimini topmagach, tahririyat ushbu mavzuga yana qaytib, gazetaning 2019-yil 6-mart sonida Sharifa Madrahimovaning "Direktor nega sarson qilinmoqda?" Yoxud bir parcha yer mojarosi" sarlavhali maqolasi chop etildi. Shundan so'ng joriy yilning 20-mart kuni Xalq ta'limi vazirligi saytida "Farg'onaning Quva tumanidagi 50-maktab yer maydoni va qo'shimcha bino o'quv muassasasiga qaytarildi", deb xabar berildi. Muxbirimiz "Chindan ham maktabning kadastr hujjatlari tayyorlab berildimi?" degan



## Sport maydoni maktab tasarrufida qoldirildi!

"1990-yil sobiq Quva tuman kolxozchilarining 1989-yil yakuni bo'yicha o'tkazgan umumiy yig'ilish qaroriga asosan kolxoz o'ramidagi Qorashoh qishlog'ida 278-, 279-, 280-, 281-konturlarda joylashgan jami 3,5 gektar yer maydoni 44-umumiy o'rta ta'lim maktabi qurilishi uchun ajratib berilgan. Ushbu yer maydonida Quva tumani xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 44-umumta'lim maktabi hamda futbol o'yingohi qurilgan. Mazkur maktab bino va inshootlariga Quva tuman hokimining 2014-yil 19-maydagi 814-sonli qaroriga asosan kadastr hujjatlari to'plami rasmiylashtirilgan. Lekin futbol o'yingohi qandaydir sabablarga ko'ra kadastr hujjatlari to'plami rasmiylashtirilish vaqtida ro'yxatdan tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, Quva tuman hokimining 2014-yil 19-maydagi 814-sonli qarori bilan maktabga 2,75 gektar yer maydoniga egalik huquqi berilgan bo'lsa-da, maktabning rasmiylashtirilgan kadastr hujjatida 1,94 gektar yer maydoni rasmiylashtirilgan. Tuman-dagi qolgan maktablarning kadastr hujjatlaridagi tuman hokimining qarori ilovasida 44-maktab uchun 2,75 gektar yer maydoniga egalik huquqi belgilanganligi aniqlandi.

Ushbu futbol o'yingohi old tomonidan 700 kv.m yer maydoni Quva tuman hokimining 2018-yil 29-avgustdagi 1754-sonli qaroriga asosan tanlov g'olibi "Qosimov Sirojiddin chorvasi" dehqon xo'jaligiga

ikki qavatli savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxbchasi qurish uchun ajratilgan. Vaholanki, ushbu yer maydoni Quva tumanidagi 44-umumta'lim maktabiga futbol o'yingohi sifatida foydalanish uchun ajratilgan yer maydoni hisoblanib, qariyb 28 yildan buyon maktab tomonidan mashg'ulot va sport to'garaklari o'tkazilar edi. Shuningdek, mahalla fuqarolar yig'ini va O'zbekiston yoshlar ittifoqi Quva tuman kengashi tomonidan tashkil etiladigan ko'plab sport o'yinlari ham shu yerda o'tkazib kelinardi. Bundan tashqari, mazkur yer maydonidan Quva tuman mudofaa ishlari bo'limi va IIB ham doimiy ravishda foydalanib kelmoqda.

Hozirgi kunga qadar ushbu yer maydoni Quva tumani "Yermulkkadastr" bo'limining 2018-yil 31-oktabrdagi 2241-sonli javob xatiga asosan maktab hisobida turibdi.

Ushbu holatlar yuzasidan 2019-yil 6-mart kuni yuqoridagilarni asos qilgan holda yer maydonini maktab hisobiga qaytarish maqsadida 44-maktab tomonidan Quva tuman ma'muriy sudiga murojaat etilib, unda qurilish ishlari to'xtatilishi hamda o'yingoh va qurilish ishlari olib borilayotgan 0,07 gektar yer maydonining 44-maktabga tegishli ekanini tasdiqlanishi so'ralgan. Murojaat bo'yicha Quva tuman ma'muriy sudi tomonidan 2019-yil 9-aprel kuni hal qiluv qarori bilan mazkur yer maydoni maktab-

savolga javob izlash chog'ida yana bir muammo, ya'ni xuddi shu tumandagi 44-maktab futbol maydonining bir qismi ham tadbirkor tomonidan noqonuniy egallab olingani ma'lum bo'ldi. Gazetamizda e'lon qilingan navbatdagi maqolada ("Hokimlik eshigida sarg'ayayotgan direktor yoxud yerto'lada o'qiyotgan bolalar", 2019-yil 1-may) ushbu maktab va tadbirkor o'rtasida talash bo'layotgan yer masalasi ham qalamga olingan edi. Tahririyatimizga ushbu maqola yuzasidan Farg'ona viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i M.Turdimatov imzosi bilan rasmiy xat keldi. Uni mushtariylar e'tiboriga havola etamiz.

ga tegishli ekanligi to'g'risida ajrim o'qib eshittirildi. Norozi bo'lgan tadbirkor 2019-yil 28-may kuni apellyatsiya yozadi va yakuniy qarorda Quva tuman ma'muriy sudi tomonidan 2019-yil 9-aprel kuni hal qiluv qarori haqqoniy deb topildi.

Quva tumanidagi 50-maktabga tegishli qo'shimcha bino va inshootlarning kadastr hujjatlarini tayyorlash va tadbirkorga nisbatan Quva tuman hokimligining 2018-yil 20-iyundagi 1065-sonli qarorini bekor qilish yuzasidan sudga murojaat etilgan. Ushbu da'voni Quvasoy shahar ma'muriy sudi 2018-yil 17-dekabrda hal qiluv qarori bilan rad etgan. Apellyatsiya sudida 2019-yil 14-fevral kuni Namangan viloyati ma'muriy sudi 3-1511-1801/1070-sonli qarori bilan Quvasoy shahar ma'muriy sudining 2018-yil 17-dekabrda hal qiluv qarorini va Quva tuman hokimligining 2018-yil 20-iyundagi 1065-sonli qarorini haqiqiy emas, deb topdi. Kassatsiya shikoyatini qisman qanoatlantirish bilan qaror tuman hokimligining ixtiyorida qoldirildi. Tuman hokimligi mazkur bino inshootlari katta yo'l bo'yida va qizil chiziq hududida joylashganligini inobatga olib, egalik huquqini tiklash uchun farmoyish chiqarishdan bosh tortib kelmoqda. Hozir Namangan viloyati ma'muriy sudining 3-1511-1801/1070-sonli qaroriga oydinlik kiritish yuzasidan Oliy sudga murojaat etilganini ma'lum qilamiz".



ni Respublika ta'lim markazi ilmiy-metodik kengashi yig'ilishida qayta ishlash taklif etilib, ushbu darslik Shaxmat federatsiyasi tomonidan qayta ishlanmoqda.

Maktablarning ta'lim-tarbiya jarayonida shaxmat saboqlari sifatli tashkil etilishini nazorat qilish va ko'maklashish hamda shaxmat saboqlarini olib borish uchun o'qituvchi va o'quvchilarga zarur shart-sharoitlar yaratilganini o'rganish maqsadida 2019-yil 25—28-fevral kunlari vazirlik ishchi guruhi tomonidan amaliy-uslubiy yordam ko'rsatilgan.

Shu bilan birga, 150 ta umumta'lim maktabida 2018-2019-o'quv yili davomida 34 soatlik reja asosida o'quvlar o'tkazilib, ularga jami 12 138 nafar o'quvchi qamrab olindi.

Shuningdek, vazirlikning 2019-yil 7-yanvardagi 02-06/3-68-sonli xati bilan tasdiqlangan taqsimot asosida (har bir maktabga 20 ta shaxmat doskasi, 1 ta magnitli shaxmat namoyish taxtasi, 15 ta elektron shaxmat soati) Shaxmat federatsiyasi tomonidan taqdim etilgan 150 ta maktabning shaxmat sinfonalarini zarur moddiy-texnik jihatdan ta'minlash bo'yicha 150 ta magnitli doska, 3000 ta shaxmat taxtasi hamda 2 250 ta elektron shaxmat soati o'rnatilgan tartibda joylarga yetkazilgan".

## Namangan viloyat hokimligi diqqatiga!

## Maktabdagi mahalla idorasi

## yoxud "tekin tomosha"lar mashmashasi

Bundan ikki yil muqaddam Norin tumanidagi 15-maktab direktori Karima Rasulova "Shahidmozor" MFY raisi va shu mahalla profilaktika inspektoriga muassasaning bosh binosidan ikkita xona ajratayotganda boshiga qanchalar g'avg'o orttirayotganini xayoliga ham keltirmagan edi. Hammasi ular maktabga kelib joylashgach boshlandi.

Maktab ahli bir kuni muro-sasi qochgan qudalarning da-hanaki jangiga guvoh bo'lsa, ertasiga ikki piyonistani insofga keltirishga urinish qanday oqibat bilan yakunlanayotganini ko'rib, dili xira bo'lardi. Mana ikki yildirki, bu taxlit "tekin tomosha"lar nafaqat direktor va o'qituvchilar, balki 356 nafar o'quvchining ko'z o'ngida bir necha marta namoyish etildi. Chunki mahalla fuqarolar yig'ini idorasi va profilaktika inspektorining xizmat xonasiga ta'lim muassasasining asosiy eshigidan kiriladi-da!

Hayotiy haqiqat — mahalla oqsoqoli va faollari bu kabi janjallar, qo'yd-chiqdirlarga, istasa-istamasa, aralashishga majbur. Ammo ixtiyorsiz guvohga aylangan pedagoglar-u o'quvchilarning aybi nima? Ularning tinchini buzib, o'quv jarayoniga xalal berayotgan bu kabi noxush ko'rinishlar qachon barham topadi? Qaynona-kelin, ku-yov bilan qaynata mojarolari, yer talashgan qo'shnilarning og'zidan chiqqan haqoratlar, shirakayf otaneng maktab ichki yo'lga va xizmat xonalaridagi baqir-chaqiri o'quvchilar ruhiyatiga qanday ta'sir qilishini o'zingiz yaxshi bilasiz. Hali yomonlik nimeligini bilmagan qorako'zlarda bu holatlar hayot va oilaviy turmush haqida qanday xulosa paydo qilganini tasavvur qilish qiyin emas!

Xo'sh, maktabda joylashib olgan "Shahidmozor" MFY raisi va boshqa xodimlar qanday fikrda? Mahallaning idorasiga nima bo'lgan?

— Ochig'i, bunday sharoitda ishlash o'zimizga ham noqulay. Chunki idoraga har xil odam keladi. Ko'plar oilaviy janjal yoki turli kelishmovchilik tufayli murojaat etadi. Ayrim andisha-sizlar bu yer maktab ekanini, bunda yosh bolalar, kelajagimiz egalari ulg'ayayotganini angla-

maydi ham. Og'ziga kelganini aytadi. Menimcha, maktab — mahalla — oila hamkorligini mustahkamlaymiz, ta'lim-tarbiya ishini yanada yaxshilaymiz, deb aksini qildik chog'i, — deydi MFY raisi Iskandar Nishonov. — Endi yana bir muammo chiqdi. Bizga tegishli bino juda eski va avariya holatida edi. Uni tashlab chiqqanimizdan keyin binosiz qoldik. Maktab rahbariyati esa xonani bo'shatgilar, deyapti. Shu sabab tuman hokimligiga murojaat qilganmiz. Ammo...

Raisning so'zini davom ettirsak. Norin tuman hokimligi "Shahidmozor" MFY idorasi uchun bino yoki qurilish uchun yer ajratib berish haqida 2018-yil 19-yanvarda yo'llangan 11-raqamli xatga ikki yil mobaynida javob ham bermagan. Shu yil aprel oyida tuman hokimining o'rinbosari Saydullo Siddiqov bilan uchrashib, mazkur muammo yechimi bilan qiziqqan edik. Hokim muovini MFY idorasi uchun yer maydoni allaqachon ajratilganini, tez orada qurilish boshlanishini ma'lum qildi. Biroq yer ajratilgani to'g'risida tuman hokimi qarori va loyiha haqida so'raganimizda tayinli javob ololmadik.

"Mahalla" xayriya jamoat fondi tuman bo'limi raisi Yo'ldoshali To'rayevning aytishicha, iyul oyiga kelib bino qurilishi uchun yer ajratish to'g'risida tuman hokimining qarori loyihasi tayyorlanibdi. E'tibor qarating, qaror emas, uning loyihasi. Kimning gapiga ishonishgayam hayronsan!

Xullas, 15-maktab o'qituvchi va o'quvchilari yangi o'quv yilida ham "tekin tomosha"larga guvoh bo'lishadi, shekilli! Maktab direktori Gulsum Kimsanovning bildirishicha, profilaktika inspektori maktab xonasini bo'shatgan.

Lekin uning rahbarligidagi MFY faollarining maktabda katta bir sinfononani egallab o'tirgani, ustiga ustak MFY xonani yoritish, isitish uchun bir so'm sarflamayotgani, bu xarajatlar ham maktab hisobidan to'lab berilayotgani ta'lim-tarbiya ishini yaxshilashga qay darajada ta'sir qilganini tushunishni ham xohlamadi.

Pop tumanidagi 29-maktab direktori Sharifjon Boyboboyevga ham bu tashvish begona emas. "Chodakboshi" MFY mutasaddilari ikki yil muqaddam maktab binosidan ajratilgan katta sinfononani qaytarishni xayollariga ham keltirishmayapti. Mahalla oqsoqoli Baxtiyor Ashurbayev maktabda falon yili qabul qilingan farmon yoki qarorga asosan xona olganini, agar ular bekor qilinsa, sinf xonasini bo'shatib berishini ta'kid-ladi. Biroq qaysi farmon yoki qaror haqida gapirayotganini asoslab berolmadi. Aksincha, MFY idorasining ta'lim muassasasida joylashgani maktabda ta'lim-tarbiya sifati yaxshilashiga ijobiy ta'sir etganini zo'r berib uqtirdi. Lekin uning rahbarligidagi MFY faollarining maktabda katta bir sinfononani egallab o'tirgani, ustiga ustak MFY xonani yoritish, isitish uchun bir so'm sarflamayotgani, bu xarajatlar ham maktab hisobidan to'lab berilayotgani ta'lim-tarbiya ishini yaxshilashga qay darajada ta'sir qilganini tushunishni ham xohlamadi.

Aslida 556 nafar o'quvchi ikki smenada o'qiyotgan 29-maktabda har bir xonaning o'rni bor. Direktor Sharifjon Boyboboyevning aytishicha, xona yetishmasligidan o'quvchilar uchun zarur fan va boshqa yo'nalishdagi to'garaklarni ochish imkoniyati bo'lmayapti. Qolaversa, bu yerda ham yuz berib turadigan turli janjal va tortishuvlar o'quvchilar ma'naviyati va ruhiyatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Bunday holatni tumandagi 54-, 41-, 34-maktab singari 16 ta ta'lim maskanida ham kuza-tish mumkin. Mazkur muassasalardagi xonalardan foydalanayotgan MFYlarning aksariyati o'z binosiga ega emas. Shu sabab maktab xonalari bo'shatib berishni istamayapti. Darvoqe, bu maktablar ham joy berib, ham MFYlarning elektr energiyasi va boshqa kommunal xizmatlardan foydalanish xarajatlarini to'lab kelmoqda. Qiziq savol tug'iladi: tuman hokimligi, moliya bo'limi mutasaddilari "yemagan somsasiga pul to'layotgan" maktablar tufayli MFYlarning sarflanmay turgan mablag'larini qaysi maqsadlar-ga sarflayapti?

G'aniSher AKBAROV,  
"Ma'rifat" muxbiri




Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim QOZOQ tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun  
2019-2020-o'quv yilida foydalanishga tavsiya etiladigan darsliklar  
RO'YXATI

| Tir     | Darslik va o'quv qo'llanma nomi                                               | Muallif                | Tavsiya etilgan yili | Ta'minlanish holati |
|---------|-------------------------------------------------------------------------------|------------------------|----------------------|---------------------|
| 1-sinf  |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | Alfabe (Әліпбе)                                                               | M.Umarov               | 2019                 | Bepul               |
| 2       | Yozuv daftri (Қызы азуры)                                                     | M.Umarov               | 2019                 | Bepul               |
| 3       | Ona tili (Ана тілі)                                                           | M.Umarov               | 2019                 | Bepul               |
| 4       | O'qish kitobi (Оқы кітабы)                                                    | M.Umarov               | 2019                 | Bepul               |
| 5       | Matematika                                                                    | M.Ahmedov va b.        | 2019                 | Bepul               |
| 6       | Matematika daftri                                                             | M.Jumayev va b.        | 2019                 | Bepul               |
| 7       | Atrofimdagi olam                                                              | N.Mamadina va b.       | 2019                 | Bepul               |
| 8       | Odbonoma                                                                      | O.Hasanboyeva va b.    | 2019                 | Bepul               |
| 9       | Tasviriy san'at                                                               | R.Hasanov              | 2019                 | Bepul               |
| 10      | Musiq                                                                         | H.Nurmatov va b.       | 2019                 | Bepul               |
| 11      | "Kids' English"                                                               | M.Irtaqulov va b.      | 2019                 | Bepul               |
| 12      | "Deutsch mit Spaß"                                                            | M.Dadasoyeva va b.     | 2019                 | Bepul               |
| 13      | "Hirondelle"                                                                  | S.Rahmonov va b.       | 2019                 | Bepul               |
| 14      | Texnologiya                                                                   | I.Mannopova va b.      | 2019                 | Bepul               |
| 2-sinf  |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)                                     | A.Rafiyev va b.        | 2018                 | Ijara               |
| 2       | Ona tili (Ана тілі)                                                           | M.Osmapova             | 2018                 | Ijara               |
| 3       | O'qish kitobi (Оқы кітабы)                                                    | M.Osmapova             | 2018                 | Ijara               |
| 4       | Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)                                 | Z.Abduraimova          | 2018                 | Ijara               |
| 5       | Matematika                                                                    | N.Abduraimova va b.    | 2018                 | Ijara               |
| 6       | Atrofimdagi olam                                                              | P.G'ulomov va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 7       | Odbonoma                                                                      | O.Hasanboyeva va b.    | 2018                 | Ijara               |
| 8       | Musiq                                                                         | H.Nurmatov va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 9       | Tasviriy san'at                                                               | M.Isoqova va b.        | 2018                 | Ijara               |
| 10      | Jismoniy tarbiya                                                              | K.Mahkamjonov va b.    | 2018                 | Ijara               |
| 11      | "Kids' English"                                                               | S.Xan va b.            | 2018                 | Ijara               |
| 12      | "Workbook"                                                                    | S.Xan va b.            | 2019                 | Ijara               |
| 13      | "Deutsch mit Spaß"                                                            | M.Dadasoyeva va b.     | 2018                 | Ijara               |
| 14      | "Arbeitsheft"                                                                 | M.Dadasoyeva va b.     | 2019                 | Ijara               |
| 15      | "Hirondelle"                                                                  | S.Rahmonov va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 16      | "Cahier d'exercices"                                                          | S.Rahmonov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 17      | Texnologiya                                                                   | X.Sanaqulov va b.      | 2018                 | Ijara               |
| 3-sinf  |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)                                     | A.Rafiyev va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 2       | Ona tili (Ана тілі)                                                           | M.Osmapova va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 3       | O'qish kitobi (Оқы кітабы)                                                    | M.Osmapova va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 4       | Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)                                 | N.Sergeyeva va b.      | 2019                 | Ijara               |
| 5       | Matematika                                                                    | S.Burhonov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 6       | Tabiiyatsunoslik                                                              | A.Bahromov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 7       | Odbonoma                                                                      | M.Xoligova va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 8       | Tasviriy san'at                                                               | M.Isoqova va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 9       | Musiq                                                                         | H.Nurmatov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 10      | "Kids' English"                                                               | S.Xan va b.            | 2017                 | Bepul               |
| 11      | "Workbook"                                                                    | S.Xan va b.            | 2019                 | Ijara               |
| 12      | "Deutsch mit Spaß"                                                            | M.Dadasoyeva va b.     | 2017                 | Bepul               |
| 13      | "Arbeitsheft"                                                                 | M.Dadasoyeva va b.     | 2019                 | Ijara               |
| 14      | "Hirondelle"                                                                  | S.Rahmonov va b.       | 2017                 | Bepul               |
| 15      | "Cahier d'exercices"                                                          | S.Rahmonov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 16      | Texnologiya                                                                   | X.Sanaqulov va b.      | 2019                 | Ijara               |
| 4-sinf  |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)                                     | A.Rafiyev va b.        | 2017                 | Ijara               |
| 2       | O'qish kitobi (Оқы кітабы)                                                    | M.Osmapova va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 3       | Ona tili (Ана тілі)                                                           | M.Omarov               | 2017                 | Ijara               |
| 4       | Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)                                 | M.Karimova va b.       | 2016                 | Ijara               |
| 5       | Matematika                                                                    | N.Bikbayeva va b.      | 2017                 | Ijara               |
| 6       | Tabiiyatsunoslik                                                              | A.Bahromov va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 7       | Odbonoma                                                                      | M.Xoligova va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 8       | Musiq                                                                         | O.Ibrohimov            | 2017                 | Ijara               |
| 9       | Jismoniy tarbiya                                                              | K.Mahkamjonov va b.    | 2017                 | Ijara               |
| 10      | Texnologiya                                                                   | I.Mannopova va b.      | 2017                 | Ijara               |
| 11      | Tasviriy san'at                                                               | A.Sulaymonov va b.     | 2017                 | Ijara               |
| 12      | "Kids' English"                                                               | S.Xan va b.            | 2016                 | Bepul               |
| 13      | "Workbook"                                                                    | S.Xan va b.            | 2019                 | Ijara               |
| 14      | "Deutsch mit Spaß"                                                            | M.Dadasoyeva va b.     | 2016                 | Bepul               |
| 15      | "Arbeitsheft"                                                                 | M.Dadasoyeva va b.     | 2019                 | Ijara               |
| 16      | "Hirondelle"                                                                  | S.Rahmonov va b.       | 2016                 | Bepul               |
| 17      | "Cahier d'exercices"                                                          | S.Rahmonov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 5-sinf  |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)                                     | A.Rafiyev va b.        | 2015                 | Ijara               |
| 2       | Qozoq tili (Қазақ тілі)                                                       | U.Bayqaslov va b.      | 2015                 | Ijara               |
| 3       | Adabiyot (Әдебиет)                                                            | Q.Seydanov va b.       | 2015                 | Ijara               |
| 4       | Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)                                 | Y.Musurmonova          | 2016                 | Ijara               |
| 5       | "New Fly High English"                                                        | L.Jo'rayev va b.       | 2017                 | Bepul               |
| 6       | "Deutsch"                                                                     | Z.Qiyomova va b.       | 2017                 | Bepul               |
| 7       | "Je parle français"                                                           | A.Nosirov va b.        | 2017                 | Bepul               |
| 8       | Tarixdan hikoyalar                                                            | U.Jo'rayev va b.       | 2015                 | Ijara               |
| 9       | Vatan tuyg'usi                                                                | X.Sultonov va b.       | 2015                 | Ijara               |
| 10      | Matematika                                                                    | B.Haydarov             | 2015                 | Ijara               |
| 11      | Botanika                                                                      | O'.Pratov va b.        | 2015                 | Ijara               |
| 12      | Informatika                                                                   | D.Kamoliddinova        | 2016                 | Ijara               |
| 13      | Geografiya (Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi)                             | P.G'ulomov va b.       | 2015                 | Ijara               |
| 14      | Musiq                                                                         | A.Mansurov va b.       | 2015                 | Ijara               |
| 15      | Texnologiya                                                                   | Sh.Sharipov va b.      | 2015                 | Ijara               |
| 16      | Tasviriy san'at                                                               | T.Qo'ziyev va b.       | 2015                 | Ijara               |
| 6-sinf  |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)                                     | X.Muhiddinova va b.    | 2017                 | Ijara               |
| 2       | Qozoq tili (Қазақ тілі)                                                       | A.Isabayev va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 3       | Adabiyot (Әдебиет)                                                            | Y.Abdulvalitov va b.   | 2017                 | Ijara               |
| 4       | Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)                                 | G.Gaslova va b.        | 2017                 | Ijara               |
| 5       | "Teens' English"                                                              | S.Xan va b.            | 2018                 | Ijara               |
| 6       | "Assalom, Deutsch!"                                                           | N.Suxanova va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 7       | "Voyage en France"                                                            | Z.Abdulshukurova va b. | 2018                 | Ijara               |
| 8       | Matematika                                                                    | M.Mirzaahmedov va b.   | 2017                 | Ijara               |
| 9       | Fizika                                                                        | N.Turdiyev             | 2017                 | Ijara               |
| 10      | Biologiya (Botanika)                                                          | O'.Pratov va b.        | 2017                 | Ijara               |
| 11      | Tarix (Qadimgi dunyo)                                                         | A.Sa'dullayev va b.    | 2017                 | Ijara               |
| 12      | Vatan tuyg'usi                                                                | X.Sultonov va b.       | 2015                 | Ijara               |
| 13      | Informatika va axborot texnologiyalari                                        | B.Boltayev va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 14      | Geografiya (Materiallar va okeanlar tabiiy geografiyasi)                      | A.Sotov va b.          | 2017                 | Ijara               |
| 15      | Musiq                                                                         | S.Begmatov             | 2017                 | Ijara               |
| 16      | Texnologiya                                                                   | Sh.Sharipov va b.      | 2017                 | Ijara               |
| 17      | Tasviriy san'at                                                               | Q.Mirzaahmedov va b.   | 2017                 | Ijara               |
| 7-sinf  |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)                                     | X.Muhiddinova va b.    | 2017                 | Ijara               |
| 2       | Qozoq tili (Қазақ тілі)                                                       | D.Aytbayev va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 3       | Adabiyot (Әдебиет)                                                            | Q.Seydanov va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 4       | Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)                                 | S.Isombekova va b.     | 2017                 | Ijara               |
| 5       | "Fly High English"                                                            | S.Xan va b.            | 2019                 | Ijara               |
| 6       | "Assalom, Deutsch!"                                                           | N.Suxanova va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 7       | "Bon voyage"                                                                  | S.Umarova va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 8       | O'zbekiston tarixi                                                            | A.Muhammadjonov        | 2017                 | Ijara               |
| 9       | Jahon tarixi                                                                  | T.Salimov va b.        | 2017                 | Ijara               |
| 10      | Algebra                                                                       | Sh.Alimov va b.        | 2017                 | Ijara               |
| 11      | Geometriya                                                                    | A.A'zamov va b.        | 2017                 | Ijara               |
| 12      | Fizika                                                                        | P.Habibullayev va b.   | 2017                 | Ijara               |
| 13      | Kimyo                                                                         | I.Asqarov va b.        | 2017                 | Ijara               |
| 14      | Biologiya (Zoologiya)                                                         | O.Mavlonov             | 2017                 | Ijara               |
| 15      | Geografiya (O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi, O'zbekiston tabiiy geografiyasi) | P.G'ulomov va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 16      | Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari                                | M.Qarshiboyev va b.    | 2015                 | Ijara               |
| 17      | Informatika va axborot texnologiyalari                                        | B.Boltayev va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 18      | Texnologiya                                                                   | Sh.Sharipov va b.      | 2017                 | Ijara               |
| 19      | Tasviriy san'at                                                               | A.Sulaymonov va b.     | 2017                 | Ijara               |
| 20      | Musiq                                                                         | O.Ibrohimov va b.      | 2017                 | Ijara               |
| 21      | Jismoniy tarbiya                                                              | T.Umonov va b.         | 2017                 | Kutubxona fondi     |
| 8-sinf  |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)                                     | X.Muhiddinova          | 2019                 | Ijara               |
| 2       | Qozoq tili (Қазақ тілі)                                                       | D.Aytbayev va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 3       | Adabiyot (Әдебиет)                                                            | Y.Abdulvalitov va b.   | 2019                 | Ijara               |
| 4       | Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)                                 | M.Rojnova va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 5       | "Fly High English"                                                            | L.Jo'rayev va b.       | 2014                 | Bepul               |
| 6       | "Assalom, Deutsch!"                                                           | N.Suxanova va b.       | 2014                 | Bepul               |
| 7       | "Le nouveau voyage en France"                                                 | Z.Abdulshukurova va b. | 2014                 | Bepul               |
| 8       | O'zbekiston tarixi                                                            | U.Jo'rayev va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 9       | Jahon tarixi                                                                  | R.Farmonov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 10      | O'zbekiston davlati va huquqi asoslari                                        | O.Karimova va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 11      | Iqtisodiy bilim asoslari                                                      | E.Sariqov va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 12      | Algebra                                                                       | Sh.Alimov va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 13      | Geometriya                                                                    | A.Rahimqoriyev         | 2019                 | Ijara               |
| 14      | Fizika                                                                        | P.Habibullayev va b.   | 2019                 | Ijara               |
| 15      | Kimyo                                                                         | I.Asqarov va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 16      | Biologiya (Odam va uning salomatligi)                                         | O.Mavlonov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 17      | Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy-jimoiy geografiyasi)                        | P.Musayev va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 18      | Informatika va hisoblash texnikasi asoslari                                   | B.Boltayev va b.       | 2015                 | Ijara               |
| 19      | Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari                                | R.Qo'chqor va b.       | 2015                 | Ijara               |
| 20      | Chizmachilik                                                                  | L.Rahmonov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 21      | Texnologiya                                                                   | O'.Tohirov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 9-sinf  |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)                                     | A.Rafiyev va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 2       | Qozoq tili (Қазақ тілі)                                                       | S.Amanjolov va b.      | 2019                 | Ijara               |
| 3       | Adabiyot (Әдебиет)                                                            | Q.Jumaliyev va b.      | 2019                 | Ijara               |
| 4       | Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)                                 | R.Usmanova va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 5       | "Fly High English"                                                            | L.Jo'rayev va b.       | 2014                 | Bepul               |
| 6       | "Deutsch"                                                                     | M.Dadasoyeva va b.     | 2014                 | Bepul               |
| 7       | "D'un Etat a l'autre"                                                         | S.Rahmonov va b.       | 2014                 | Bepul               |
| 8       | O'zbekiston tarixi                                                            | S.Tilaboyev va b.      | 2019                 | Ijara               |
| 9       | Jahon tarixi                                                                  | M.Lafasov va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 10      | Konstitutsiyaviy huquq asoslari                                               | G.Tanishbayeva va b.   | 2019                 | Ijara               |
| 11      | Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari                                | O.Musurmonova va b.    | 2015                 | Ijara               |
| 12      | Iqtisodiy bilim asoslari                                                      | E.Sariqov va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 13      | Algebra                                                                       | Sh.Alimov va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 14      | Geometriya                                                                    | B.Haydarov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 15      | Fizika                                                                        | P.Habibullayev va b.   | 2019                 | Ijara               |
| 16      | Kimyo                                                                         | I.Asqarov va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 17      | Biologiya (Sitologiya va genetika asoslari)                                   | A.Zikriyoyev va b.     | 2019                 | Ijara               |
| 18      | Geografiya (Jahon iqtisodiy-jimoiy geografiyasi)                              | A.Qayumov va b.        | 2019                 | Ijara               |
| 19      | Informatika va hisoblash texnikasi asoslari                                   | B.Boltayev va b.       | 2015                 | Ijara               |
| 20      | Chizmachilik                                                                  | L.Rahmonov va b.       | 2019                 | Ijara               |
| 21      | Texnologiya                                                                   | Z.Sattorova va b.      | 2019                 | Ijara               |
| 10-sinf |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | Qozoq tili (Қазақ тілі)                                                       | D.Aytbayev va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 2       | Adabiyot (Әдебиет)                                                            | Q.Seydanov va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 3       | O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)                                     | X.Muhiddinova va b.    | 2017                 | Ijara               |
| 4       | Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)                                 | S.Isombekova va b.     | 2017                 | Ijara               |
| 5       | "English"                                                                     | F.Rashidova va b.      | 2017                 | Bepul               |
| 6       | "Deutsch"                                                                     | Sh.Inyaminova va b.    | 2017                 | Bepul               |
| 7       | "France"                                                                      | Z.Davronova va b.      | 2017                 | Bepul               |
| 8       | O'zbekiston tarixi                                                            | Q.Rajabov va b.        | 2017                 | Ijara               |
| 9       | Jahon tarixi                                                                  | Sh.Ergashev va b.      | 2017                 | Ijara               |
| 10      | Dunyo dinlari tarixi                                                          | Z.Isomov va b.         | 2017                 | Ijara               |
| 11      | Davlat va huquq asoslari                                                      | V.Kostetskiy           | 2017                 | Ijara               |
| 12      | Ma'naviyat asoslari                                                           | V.Qo'chqorov va b.     | 2017                 | Ijara               |
| 13      | Matematika (Algebra va analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism                  | M.Mirzaahmedov va b.   | 2017                 | Ijara               |
| 14      | Informatika va axborot texnologiyalari                                        | N.Tayloqov va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 15      | Fizika                                                                        | N.Turdiyev va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 16      | Organik kimyo                                                                 | A.Mutalibov va b.      | 2017                 | Ijara               |
| 17      | Biologiya                                                                     | A.G'afurov va b.       | 2017                 | Ijara               |
| 18      | Geografiya (Amaliy geografiya)                                                | Sh.Sharipov va b.      | 2017                 | Ijara               |
| 19      | Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik                                    | Sh.Ubaydullayev va b.  | 2017                 | Ijara               |
| 11-SINF |                                                                               |                        |                      |                     |
| 1       | Qozoq tili (Қазақ тілі)                                                       | D.Aytbayev va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 2       | Adabiyot (Әдебиет)                                                            | Q.Seydanov va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 3       | O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)                                     | X.Muhiddinova va b.    | 2018                 | Ijara               |
| 4       | Pyccкий язык (O'zbek va qardosh tillar uchun)                                 | S.Isombekova va b.     | 2018                 | Ijara               |
| 5       | O'zbekiston tarixi                                                            | N.Jo'rayev va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 6       | Jahon tarixi                                                                  | Sh.Ergashev va b.      | 2018                 | Ijara               |
| 7       | Dunyo dinlari tarixi                                                          | Z.Isomov va b.         | 2018                 | Ijara               |
| 8       | Davlat va huquq asoslari                                                      | N.Ismatova va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 9       | Ma'naviyat asoslari                                                           | V.Qo'chqorov va b.     | 2018                 | Ijara               |
| 10      | Tabiiyot asoslari                                                             | U.G'ofurov va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 11      | Matematika (Algebra va analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism                  | M.Mirzaahmedov va b.   | 2018                 | Ijara               |
| 12      | Informatika va axborot texnologiyalari                                        | N.Tayloqov va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 13      | Biologiya                                                                     | A.G'afurov va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 14      | Astronomiya                                                                   | M.Mamadazimov          | 2018                 | Ijara               |
| 15      | Fizika                                                                        | N.Turdiyev va b.       | 2018                 | Ijara               |
| 16      | Umumiy kimyo                                                                  | S.Masharipov va b.     | 2018                 | Ijara               |
| 17      | "English"                                                                     | F.Rashidova va b.      | 2018                 | Ijara               |
| 18      | "Deutsch"                                                                     | Sh.Inyaminova va b.    | 2018                 | Ijara               |
| 19      | "Libre opinion"                                                               | M.Jo'rayeva va b.      | 2018                 | Ijara               |
| 20      | Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik                                    | Sh.Ubaydullayev va b.  | 2018                 | Ijara               |



Tuyg'u

# Vatan — qishloq



Beshinchi yo oltinchi sinfda o'qirdim. Qo'shni qishloqdan biz tengi bolalar maktabimizga kelib, futbol musobaqasi uyushtirish taklifini aytishdi. Xastaman, futbol o'ynay olmasdim, do'stlarim bu taklifga rozi bo'ldi. Xullas, men — tomoshabin. Qo'shni qishloq o'yinchilari bizdan ancha bo'ydor, yugurishda ustunroq bo'lgani bois o'yin ularning foydasiga hal bo'ldi — 7:0.

Bundan ortiq sharmandagarchilik bormi? Mahallamizning sha'ni, obro'-e'tibori qayoqda qoldi? Miyamga urilgan bitta fikr: Vatan tuyg'usi nima ekanligi menga ayon bo'ldi. Do'stlarim yig'lashdi, ariqdagi suvga yuz-qo'llar bot-bot yuvildi. Alam qilarkan odamga. "Qult-qult" yutib, ko'zlarimni ham-madan yashirib, men ham yum-yum yig'ladim...

## Ko'ngil qotili

Ba'zi toifadagi insonlar, masalan — Vatanidan yiroqda yashovchi musofirning duosi o'tadi. Vatanidan ayrilgan inson ildizidan ajralgan daraxtdek g'ir etgan shabadaga sinaman, deb turadi. U mazlumlar mazlumidirki, quvonchi yolg'on, kulgisi soxta, ko'nglining bir cheti kemtik. Idishga qatra-qatra tomib turgan suv bir kuni toshib ketganiday, Vatan sog'inchi ham yig'ilib-yig'ilib musofir qalбини mahv etadi, uni gumrohga aylantiradi.

Vatandan ayro yashamoq mazlumlik, og'ir bir xastalik ekan, bunga shart-sharoit yaratgan kimsa u dunyo-yu bu dunyo kechirilmas gunoh egasidir. U qalbi jaholatga botgan qotil...

## "Amerikalik"

Davlatlararo tuzilgan shartnoma bois tadbirkorlik maqsadida Amerika fuqarolari viloyatimizga kirib kelishdi. Ular bilan birga rangi sap-sariq, g'alati ari ham paydo bo'ldi. Biz uni oddiygina qilib "amerikalik" deb atadik. Bir kuni enam:

— Bolam, amerikalik arilar anqov-roqmi? Uyasini turtkilasang, tashlab qochishadi. Ey, o'zimizning jaydari arilar yaxshi. Inini buzib tushirsang ham, g'uj bo'lib buzilgan uyasiga yopish-

gani-yopishgan, joniya bo'ziga ko'rinnmaydi. Vaqtida qochib qolma-chi, naq baloga qolasan-a! — deb qoldilar.

— Ena, biz o'zbeklarning arisi ham yurtim deb yashaydi-da, axir! — javob berdim men.

Bizning hazilimiz enamni jiddiylashtirdi. Ajabo! Balki onam Vatan haqida xayolga toldimikan? Ehtimol, uning ko'nglidan o'z qadrdon uyida yashayotgan arilar Vatan timsoli ekanligi o'tdimikan? Inson o'z Vatanini sevmas ekan, hayotida erishgan har qanday muvaffaqiyat — ahamiyatsiz bir narsa. Bu muvaffaqiyatning kimga keragi bor? U muvaffaqiyatni o'zi?..

Vatanning kichkinasi bo'lmaydi, har kishining o'z yurti o'zi uchun aziz, keng va bepoyon. Kattadir-kichikdir, bu sarhadni mitti yuragiga joylay olgan kishi esa Ulkan odamdur. "Koinot gultoji insondir azal, undadir eng oliy tafakkur amal..." deb yozadi ustoz shoir. E, voh! Ammo nima uchun ayrimlar o'z Vatanini oddiy asalarichalik seva olmaydilar?

## Turfalik

Odamlarni umumiy qilib yaxshi va yomon toifaga ajratamiz. Shu ikki toifa doirasida yana bir qiziq o'xshatish — bag'rikenglik va maydalik. "Mayda odamlar" deyish ba'zi kimsalar xulqiga kinoyaviy bir ta'rifki, ularning dimog'i baland, ko'zi och. Amali bilan orttirolmagan hurmat-izzatni o'zi haqida to'qigan yolg'onlari va sirtidan-

Vatanning kichkinasi bo'lmaydi, har kishining o'z yurti o'zi uchun aziz, keng va bepoyon. Kattadir-kichikdir, bu sarhadni mitti yuragiga joylay olgan kishi esa Ulkan odamdur.

deb ko'chaga olib chiqib kaltaklaydigan mahalladoshimiz keldi. O'qituvchim shoir bo'lishga "majburlasa", maktabdan ketib qolishimni uqtirmoqchiday daftar va ruchkamni qo'limga olib, shart o'rnimdan turdim.

"Hecham, men odam bo'lmoqchiman!" — dedim qat'iy. Bu hali tasavvuri juda tor bolakayning teran falsafasi edi.

## Daraxt

Ularning o'z daraxti bor. Shoxlar ikkovini begona ko'zlardan asrardi. Sevishtanlar sirli suhbat. Go'yo mahbublar dil izhorini yashirincha tinglaganday asta tebranib qo'yadi daraxt. Ardoqli daraxt tanasida yurakcha, ismlar.

— Men sevishtan shu daraxtdan o'rgandim, qo'llarimni bu-u-u-unday yozib, seni doim himoya qilaman, — derdi yigit.

— Men ham! Sizni yomg'irdan, shamoldan, g'anim nigohlardan asrayman, — yigitning pinjiga kiradi qiz.

Oradan ko'p o'tmay, munosabatlar o'zgardi, dil izhorlari o'z-o'zidan tugab qoldi. Axiyri, har ikkisi bunday davom etib bo'lmasligini his etishdi.

— ...ota-onamga qarshi chiqolmayman, axir, — birinchi qadamni yigit tashladi.

— ...biz yengildik, — uning mayliga yon berdi qiz.

Sukunat. Oradan kun, oy va yillar o'tdi.

Shaharda yashay boshlagan yigit o'g'ilchasini olib, qadrdon ko'chadan o'tib qoldi. Biyrongina o'g'ilchasi uni haybatli daraxt tomonga yetakladi.

— Dada, bu daraxtning olmasi yo'qmi?

— Yo'q...

— Nomi bormi?

— Daraxt-da, o'g'lim...

— Egasi bormi?

Yigit jim, daraxtning tanasini asta silar ekan, yuragi tilka-pora bo'ldi.

— Dada, olmasi yo'q, ismi yo'q, bu daraxt nimaga kerak?

— Odamlarga... — labidan beixtiyor bir jumla uchdi yigitning, — sevishtan o'rgatadi...

Bolakayning ko'zi bexosdan daraxt tanasidagi yurakcha tasviriga tushib qoldi.

— Bunga qarang, dada, yurakchami?

— Bu... — bir dam tili aylanmay qoldi otaning. Keyin esa o'g'ilchasining qo'lidan yetakladi. — Yur, o'g'lim, bizni onang kutayotir...

Yo'l-yo'lakay bola savol berishda davom etdi. Otaning quloqlariga hech narsa kirmaydi, nazarida, daraxti unsiz yig'layotgandek edi.

## Doira

Chin sevgini geometrik shaklda ifodalash mumkin bo'lganda men uni doirasimon qilib chizgan bo'lardim. Chunki doira ichida borliq aylanadi, aylanadi, oqibatda baribir markazga kelib qolaveradi. Sevgi ham shunday. Ba'zan inson Sevgi "doirasi"ning girdida "aylanadi", goho esa quyirog'ida... Ammo aylanib-aylanib markazga — sevgilisi yoniga qaytib kelaveradi.

Bayram Ali QO'LDOSHEV

*Qashqadaryo viloyati*



## Bilasizmi?

## Eng "saxiy" xalqaro ta'lim stipendiyalari

Bugun biror nufuzli oliy o'quv yurtida ta'lim olib, yetuk kadrqa aylanish oson emas. Buning uchun yetarlicha bilim va mablag' zarur. Keyin sarflangan ushbu mablag'ning mo'ayyina oylik maosh to'lanadigan ish topish hisobiga qoplanishi uchun yanada ko'proq bilim talab etiladi. Ayniqsa, chet tilini biladigan va xorijdagi universitetlardan birining diplomiga ega yoshlarning zarur mutaxassis sifatida istalgan korxonatashkilotga osongina ishga qabul qilinishi hech kimga sir emas.

Oliy o'quv yurtini tamomlagach, magistratura bosqichini xorijda davom ettirib, bilim va tajribasini yanada oshirish, o'z sohasining yetuk mutaxassisiga aylanishni kim ham istamaydi deysiz?! Ammo buning uchun yetarlicha pul zarurligini ko'pchilik yaxshi biladi. Biroq aksariyat insonlar chet elda o'qish pulining bir qismi yoki barchasini to'raligicha qoplab beradigan xalqaro ta'lim stipendiyalari borligidan bexabar. Davlatlar yoki yirik kompaniyalar tomonidan moliyalashtiriladigan ushbu stipendiyalar xorijda o'qish istagidagi yigit-qizlarning orzularini ro'yobga chiqarish bilan birga ta'lim olish jarayonidagi yashash xarajatlarini ham qoplaydi.

Shunday stipendiyalardan eng nomdori va keng ko'lamli **Fulbright** dasturi bo'lib, oylik to'lov miqdori 2500—2900 AQSh dollaridan oz emas. Davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan ushbu xalqaro stipendiya xorijlik talabalarga AQShda ikki yillik magistratura bosqichida ta'lim olish imkonini beradi. Dastur, shuningdek, aspirantlarga universitet hududida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish uchun grantlar ajratadi.

Bugun jahonda yuqori maqomga ega Fulbright dasturiga 1946-yili AQShning Arkanzas shtati sobiq senatori Jeyms Uilyam Fulbrayt asos solgan. O'sha kezlari AQSh va boshqa davlatlar aholisi o'rtasidagi madaniy-ilmiy aloqalarni mustahkamlash maqsadida joriy etilgan dastur davlat departamenti ko'magida moliyalashtirilgan. Vaqt o'tib, dastur ko'lamini kengaytdi va uning yordamida 300 mingdan ortiq ilmiy salohiyati yuqori, rahbarlik qobiliyatiga ega yoshlar yetishib chiqdi. Ular hozirgacha boshqa mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy tashkilotlar faoliyati bilan tanishish, jahon xalqlari bilan fikr almashish va umumiy loyihalarni amalga oshirishda faollik ko'rsatmoqda. Dastur ko'magida o'z hayotini ilm-fanga bag'ishlagan millionlab olimlar dunyoning turli burchaklarida insoniyatga nafi tegadigan ilmiy tadqiqotlar bilan band.

Hozir ushbu xalqaro ta'lim stipendiyasi jahonning 155 davlatida amal qiladi. U har yili dunyo bo'yicha 8 mingta grant e'lon qiladi. Dastur tashkilotchilari bitiruvchilari bilan har qancha faxrlansa, arziydi. Zero, ularning 41 nafari Nobel mukofoti, 28 nafari Makartur jamiyati granti sohibi, 78 nafari esa mashhur Pulitser mukofoti laureatlari hisoblanadi.

Fulbright dasturi haqiqatan yoshlarga keng imkoniyatlar eshigini ochadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. U talabalarining AQShdagi o'qish pulini to'lab berishdan tashqari, ularga oylik stipendiya ajratadi. Dastur g'oliblarining har biriga bepul tibbiy sug'urta ham taqdim etiladi.

Stipendiyani qo'lga kiritishga ahd qilgan talaba bakalavriat bosqichining oxirgi yilidayoq hujjatlarini to'plashga bel bog'lashi lozim. Chunki stipendiya uchun hujjatlar har yilning 15-mayiga qadar qa-


bul qilinadi. Talabgordan onlayn ariza to'ldirish hamda bir qancha hujjatlar, xususan, reyting daftarchasidan ko'chirmalar (diploma ilova), diplomlarning skaneridan o'tkazilgan nusxalari (ingliz tiliga tarjimasini bilan), universitetdagi professor-o'qituvchilardan yoki ish beruvchilardan uchta tavsiyanoma, rezyume yoki qisqacha tarjimaiy hol, pasportning bio-ma'lumotlar ko'rsatilgan sahifasi nusxasi, TOEFL va GRE/GMAT testlaridan olingan baholari talab etiladi. O'tish bali 80 dan yuqori bo'lishi lozim. Stipendiyani olishda yosh chegaralangan bo'lib, unda 30 yoshdan kichik talabalar ishtirok etishi mumkin.

Ushbu xalqaro ta'lim stipendiyasi ayrim cheklolarga ega. Ya'ni stipendiya g'oliblari tahsil oladigan universitetini o'zi tanlamaydi. Dastur qoidalariga ko'ra, ishtirokchilar bilim darajasi, qobiliyati asosida yoki shunchaki, tasodifan AQShdagi biror universitetga joylashtiriladi. Dastur tashkilotchilari mamlakatdagi deyarli barcha universitetlar bilan amaliy hamkorlik o'rnatgan bo'lsa-da, stipendiya g'oliblari har doim ham o'zi istagan oliy o'quv yurti talabasiga aylanmaydi. Ayrimlarning hatto kichkina shaharchadagi kichik universitetda o'qishiga to'g'ri keladi. Ammo buning vahimali joyi yo'q. Chunki dastur doirasidagi hech bir oliy o'quv yurti ta'lim jarayoni va sifatiga ko'ra bir-biridan deyarli farq qilmaydi.

Ta'lim jarayonida ham yigit-qizlarga o'qish vaqtida 2 haftadan uzoq muddatga AQSh hududidan chiqmaslik, biror joyda ishlashga urinmaslik kabi qator qat'iy talablar qo'yiladi. Ulardan birortasiga rioya qilmagan talabaniing granti o'sha zahoti bekor qilinadi. Ushbu mamlakatda viza bo'yicha ham cheklolr mavjud. Talabaga J-1 shaklidagi viza berilgani bois o'qishni tamomlagach, unga mamlakatda qolib, o'z sohasi bo'yicha ishlashga ruxsat berilmaydi.

Yevropadagi **Erasmus Mundus** xalqaro ta'lim dasturi ham dunyoning turli mamlakatlaridagi universitetlar talabalariga bir necha oydan ikki yilgacha bo'lgan muddatdagi magistratura bosqichida bepul o'qish imkonini beradi. Yevropa ta'limini ilgari surish va jahonning barcha oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik munosabatlari o'rnatishga yo'naltirilgan ushbu dasturning oylik to'lovi 1000 yevroni tashkil etadi. Albatta, Yevropada magistratura bosqichida o'qishga taklif etuvchi bu kabi dasturlar ko'p, biroq Erasmus Mundus o'qish va imtihonlar to'liq ingliz tilida olib borilishi bilan ajralib turadi. Xalqaro stipendiya talabaniing o'qish puli va boshqa barcha xarajatlarini qoplab beradi.

Stipendiyani qo'lga kiritish uchun talaba o'zi istagan universitet va ta'lim yo'nalishini tanlashi hamda uning barcha talabalarini to'liq bajarishi lozim. Ishtirokchilardan rezyume to'ldirish, o'zi tahsil olayotgan ta'lim dargohidan tavsiyanoma, ingliz tilidan topshirgan test natijalari va, eng muhimi, ushbu stipendiyani olishdan



ko'zlangan maqsadi bayon etilgan ingliz tilidagi insho talab etiladi. Hujjatlarini topshirish muddati talangan oliy o'quv yurtiga bog'liq, ammo ular taxminan har yilning dekabr—yanvar oylarida qabul qilinadi.

Buyuk Britaniyadagi **Chevening** stipendiyasi taklif etadigan magistratura bosqichi ta'limi atigi bir yilni tashkil etadi. Dastur ichiga kiruvchi ta'lim yo'nalishlari ham u qadar ko'p emas. Ammo Buyuk Britaniya Tashqi ishlar vazirligi va bir qancha homiy tashkilotlar moliyalashtiradigan stipendiyaning 1000 funt-sterling talabaniing barcha sarf-xarajatlari — borish-qaytish chiptalari, viza va har oy to'lanadigan stipendiyani o'z ichiga oladi. O'qish va yashash nihoyatda qimmat bo'lgan ushbu mamlakatda bir yil bepul tahsil olishning o'zi ham katta imkoniyat.

Stipendiyani qo'lga kiritish istagidagi yigit-qizlar bakalavr yoki undan yuqori ta'lim darajasiga ega bo'lishi lozim. Ish staji muhim emas. Ammo nomzodlar orasida kamida ikki yillik ish tajribasiga ega bo'lganlar alohida e'tiborga olinadi.

Agar siz ham ushbu stipendiya uchun hujjat topshirmoqchi bo'lsangiz, Academic IELTS testidan olgan natijalaringiz 6,5 balldan kam bo'lmasligi kerak. IELTS o'miga uning o'xshashlari — PTE Academic, TOEFL, CEA test natijalari ham qabul qilinadi. Asosiy xulosa talabaniing mavzu bo'yicha ingliz tilida yozgan inshosi hamda og'zaki suhbatga qarab beriladi. Boisi aynan shu jarayonlarda yigit-qizlarning ingliz tilidan bilimi qay darajada ekani ma'lum bo'ladi. Stipendiya uchun hujjatlar har yilning noyabr oyiga qadar qabul qilinadi.

AQShdan farqli o'laroq, bu yerda talaba o'qishni tamomlagach, darhol o'z yurtiga qaytishi shart emas. Unga mamlakatda ikki yilgacha qolish va ishlash imkonini beriladi.

Jahonga mashhur Kembrij universitetida tahsil olishni istamaydigan yoshlar bo'lmas kerak. O'qish badali nihoyatda baland turuvchi ushbu oliy o'quv yurtida 3 yillik aspirantura yoki 2 yillik magistratura bosqichida ta'lim olish imkoniyatini beruvchi **Geyts** stipendiyasi ta'sis etilgan. 2000-yili Bill va Melinda Geyts tomonidan asos solingan stipendiyaning yillik to'lovi 14 600 funt-sterling. Ushbu katta miqdordagi mablag' talabaniing o'qish, yashash, viza va yo'l xarajatlarini to'liq qoplaydi.

Stipendiyani qo'lga kiritish uchun joylarda juda katta raqobat kechadi. Dunyo-

ning turli burchaklaridan ariza topshirgan 4 mingdan ortiq ishtirokchi orasidan 90 nafar baxtli talabagina Kembrij universitetida bepul o'qish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Raqobat kuchli bo'lishi barobarida hujjatlarini saralash jarayoni ham qat'iy amalga oshiriladi. To'ldirilgan hujjatlardagi oddiy grammatik xato ham ishtirokchiga qarshi ishlashi mumkin. Shu bois ularni diqqat bilan ko'zdan kechirish zarur qilmaydi.

Talaba stipendiya uchun salkam bir yil oldin talabnoma to'ldiradi. Unga ariza, ta'lim bo'yicha hujjatlar, bir yoki bir nechta tavsiyanoma, GRE/GMAT testi amallari ilova qilinadi. Hujjatlar orasiga ishtirokchining tadqiqot ishi g'oyasi hamda akademik ishlaridan namunalari kiritilsa, yanada yaxshi. Barcha zarur hujjatlar dekabr oyining boshiga qadar qabul qilinadi.

Buyuk Britaniyadagi yana bir nufuzli ilm dargohi — Oksford universiteti ham **Pershing Square** stipendiyasi orqali ushbu afsonaviy universitetda o'qish orzusidagi yoshlarga MBA dasturi asosida biznes sohasida ikki yillik magistratura bosqichida o'qish imkoniyatini taqdim etadi. Stipendiya Pershing Square Foundation tomonidan moliyalashtirilib, yillik to'lov miqdori 13 ming funt sterlingni tashkil etadi. Bu mablag' talabaniing o'qish va yashash xarajatlarini to'liq qoplaydi.

Nomzodlarni tanlashda asosiy e'tibor ishtirokchilarning shaxsiy xususiyatlari — intiluvchanligi, maqsad yo'lida sobitqadamligi, rahbarlik imkoniyatlari hamda fe'l-atvoriga qaratiladi. Bularning barchasi "Men dunyoni o'zgartirishni istayman" mavzusidagi ingliz tilida yozilgan insho va og'zaki suhbatda ko'rsatib berilishi lozim.

Stipendiyani qo'lga kiritishda ishtirokchining maktab va universitet davridagi akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari muhim rol o'ynaydi. Nomzod o'zi o'qiyotgan oliy o'quv yurtida eng iqtidorli talabalar safida bo'lishi lozim. Chunki Oksfordga yaxshilar orasidan eng yaxshilar saralab olinadi. Stipendiya uchun barcha zarur hujjatlar har yili mart oyining birinchi yarmiga qadar qabul qilinadi.

Demak, xorijda o'qish istagidagi yoshlar xalqaro stipendiyalarni qo'lga kiritish uchun harakatni maktab davridayoq boshlashi zarur. Chunki qabul komissiyasi a'zolari ko'p hollarda nomzodlarning maktabda erishgan yutuqlari va universitet davrida olgan mukofotlarini baholaydi.

**Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.**



## Yer zaxirasi tugadi(mi)?

Global Footprint Network xalqaro tashkiloti hisobotida qayd etilishicha, insoniyat 29-iyul kuni 2019-yil hisobidagi qayta tiklanadigan tabiiy zaxiralarni tugatdi, deb yozdi "Korrespondent.net".



Xabarda aytilishicha, hozir odamzod tabiat va uning resurslaridan sayyoramizdagi ekotizim o'zini tiklash vaqtidan 1,75 marta tezroq foydalanmoqda. Bu holat yer yuzida o'rmonlar kamayishi, tuproq yemirilishi, bioxilma-xillikning yo'qolib borishi, atmosfera tarkibida karbonat angidrid miqdorining ortishi, oqibatda esa falokatli iqlim o'zgarishlariga sabab bo'lmoqda.

— Bizda yagona Yer bor, u ham bo'lsa, mavjudligimizning aniq qismidir. Shunday ekan, sayyoramiz resurslaridan bu qadar tez foydalanish nojoiz. Buning oqibati yaxshi bo'lmisligi aniq, — dedi Global Footprint Network asoschisi Matis Vakernagel.

Bunday hisob-kitob ko'rsatkichlari 1986-yildan buyon qayd etiladi. Olimlarning ta'kidlashicha, sayyoramiz resurslarining o'zini tiklash jarayoni yil sayin vaqtliroq boshlanmoqda. Xususan, bu vaqt 1993-yil 21-oktabrga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2003-yili hodisa 22-sentabrda sodir bo'ldi. 2017-yili esa jarayon yanada jadallashib, 2-avgustdayoq yillik tabiiy resurslar miqdorining tugashi kuzatilgan.

Avvalroq shu yilning iyun oyi tarixdagi eng jazirama payt bo'lgani qayd etilgan edi. Mutaxassislar global isish ta'sirida sayyoramizdagi havo haroratining ko'tarilib borayotganini inson faoliyati va uning tabiatga ta'siri bilan bog'lamoqda.



Arxeologlar Novgorod shahri yaqinidan mo'g'ullar davrigacha yashagan va davlatni boshqargan zodagonlarning toshdan yasalgan sarkofaglarini topdi, deb xabar qildi "RIA Novosti".

Georgiy ibodatxonasidan topilgan oltita toshdabutning har biri oltita plitadan iborat. Olimlarning taxminiga ko'ra, XII asrga oid, uch qator qilib joylangan sarkofaglarining tom qismi ibodatxona eshigiga olib chiquvchi o'ziga xos zina vazifasini bajargan.

Har biri 50 yoshlar atrofidagi novgorodliklarning qoldiqlaridan iborat ushbu sarkofaglarini arxeologlar noyob topilma sifatida baholamoqda.

Tadqiqotchilar toshdabut ichidagi odamlarning bo'g'imlari yo-

## Novgorodda zodagonlar sarkofaglari



mon bo'lib ketganiga qaramay, tishlari juda yaxshi saqlanganiga e'tibor berdi. Bu esa suyaklar yaxshi hayot kechirgan zodagonlarga tegishli ekanini anglatadi.

Olimlar topilgan qoldiqlar mo'g'ullargacha bo'lgan davr — 1189–1204-yillari shahar hokimi bo'lgan Miroshka Nesdinichauining oila a'zolariga tegishli bo'lishi mumkinligini taxmin qilmoqda. Ammo tekshiruv ishlari yakuniga yetmaguniga qadar xulosa chiqarishga erta.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.



## Tasvirlarda yoshlar hayoti

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus asosida tashkil etilgan "Yurtim yoshlari hayoti" tanlovining Surxondaryo viloyati bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda yosh mo'yqalam sohiblari yoshlar hayoti aks ettirilgan ijod namunalari bilan qatnashdi. 10 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan ijodkorlar o'rtasida Azizjon Oqmurodovning tasviriy ishi hakamlar hay'ati tomonidan yuqori baholandi. 15—

18 yoshli rassomlar o'rtasida esa Dildora Olimjonova o'z san'at asari bilan birinchi o'rinni egalladi. G'oliblar tanlovning mamlakat bosqichiga yo'llanma oldi.

J.QO'ZIMURODOV (O'ZA)  
olgan suratlar



### Reklama • e'lon

Allaniyazov Davran Orazimbetovichning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Qoraqalpog'iston glaukoniti va fosforitlaridan murakkab o'g'itlar olish jarayonining nazariy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.

Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanru@mail.ru

Usmanov Ilxam Ikramovichning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "O'g'itlar ishlab chiqarish chiqindilari va mirabilitni suyuq o'g'itlar, natriy xlorid, sulfatga qayta ishlash hamda flotatsiyali kaliy xlorid xossasini yaxshilash" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiya himoyasiz ixtiro patentlari asosidagi ilmiy ishini himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.

Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanru@mail.ru

Norov Abduraxmon Ubaydulloyevichning 14.00.28 — Neyroxirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Umurtqa pog'onasi kanali degenerativ stenozi klinikasi, diagnostikasi va jarrohlik davolash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.02.2018.Tib.62.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 17-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100147, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 78-uy, Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, majlislar zali.

Tel/faks: (71) 233-10-30, 230-47-99; e-mail: niio-tashkent2016@vandex.ru

Nasimov Sobirjon Toxirovichning 14.00.28 — Neyroxirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Erta ko'krak yoshidagi bolalarda notravmatik kalla ichi qon quyilishlarida davo taktikasini tanlash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.02.2018.Tib.62.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 17-avgust kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.


Manzil: 100147, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 78-uy, Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, majlislar zali.

Tel/faks: (71) 233-10-30, 230-47-99; e-mail: niio-tashkent2016@vandex.ru



# Pakana "odam"

## ("Galaktikada bir kun" ilmiy-fantastik qissasidan parcha)



(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Yarim tun. Ahmad xonasida kimdir yurganini sezib, uyg'onib ketdi. Ko'zini ochganida kompyuteri yoqilgan, begona odam esa undan nimalarnidir qidirayotgan edi.

— Ey, siz kimsiz! — qo'rquvdan Ahmadning ovozi bazo'r chiqdi.

— Iya, uyg'otib yubordimmi, bolakay?

— Bo'lishi mumkin emas. Axir bu o'sha — tanlovdagi pakana odam-ku! Qiziq, u bu yerda nima qilib yurgan ekan?! Ahmadning kompyuteri unga nimaga kerak bo'lib qoldi?! O'zi, umuman, u bu yerni qanday topib keldi?! Qahramonimizning xayollari ana shunday o'ylar bilan alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgandi.

Pakana odam kompyuteridagi qidiruv ishlarini to'xtatib, Ahmad tomon butun gavdasi bilan o'girildi. U aybdorlik hissi bilan boshini quyiyoq egib dedi:

— Qo'rqma, bolakay. Senga yomonlik qilmayman.

— Unda bu yerda nima qilib yurib-siz?!

— Men Quyosh sistemasidagi sayyoralariga judayam jiddiy topshiriq bilan yuborilganman. Lekin endi shu topshiriqni bajarishim uchun sening yordaming kerakka o'xshaydi.

— Qayerdan?! — Ahmadning ovozi deyarli bo'g'ilib qoldi.

— Men sizlar Sirius deb ataydigan yulduz sistemasidagi sayyoralarning biridan uchib keldim.

Ahmad bir muddat nima qilarini bilmay pakana odamga termulib qoldi. Turib qochmoqchi ham bo'ldi, lekin qattiq qo'rqib ketganidan tanasi unga bo'ysunmayotgan edi.

— O'zga sayyoraliklarga o'xshamay-siz-ku?! — hayron bo'ldi Ahmad.

— Ha-ya, bu maxsus niqobni yerliklar e'tiborini tortmaslik uchun kiyib olganman. Istasang, mana, niqobimni yechaman.

Pakana odam shunday deb, qo'llaridan boshlab maxsus kiyimni yecha boshladi. Haqiqatan ham bu qo'llar odam-nikiga sira o'xshamasdi. Moviy rangli, ozg'in, uzun-uzun barmoqlar dengiz sakizoyog'ining "oyoq"larini eslatib yuborardi.

— Bo'ldi, to'xtating! — Ahmad qolganini ko'rishni istamadi. Chunki pakana "odam" tobora qo'rqinchli maxluqqa aylanib borayotgan edi. Bolani qo'rqitib yuborganini sezgan o'zga sayyoralik darhol maxsus kiyimini qayta kiydi va dedi:

— Sen qo'rqma. Men seni uyg'otib yuborish niyatida ham emasdim. Lekin xonangdan chizmalarni hech topa olmayapman.

— Chizmalar?!

— Ha, ertalab sen tanlovdagi ko'rsatgan uchar qurilmaning chizmalari-da.

— Ularni nima qilassiz?!

— Kel, hammasini bir boshidan so'zlab beraman, — deya pakana odam kursini biroz surib Ahmadga yaqinroq o'tirdi. — Men kelgan sayyora Salmir deb ataladi. Biz muhim vazifa bilan Quyosh sistemasiga uchayotganimizda 10 kishi edik. Ammo Quyosh sistemasiga yaqinlashib qolganimizda koinot qaroqchilari — gikslar ta'qibiga uhradik. Kemamiz juda tezkor bo'lgani uchun bu ta'qibdan osongina qutuldik. Ammo boshqa gikslar to'dasi Neptun sayyorasi yaqinida ulkan qopqon bilan bizni poylab turgan ekan. Ularning hiylasi ish berdi — kemamizni qamal qilib, ekipaj a'zolarini garovga olishdi. Birgina men kema-dagi zaxira kapsulada qochib qutuldim, xolos. Endi esa sening ixtirong asosida yangi kema yasab, topshiriqni tamomlashim shart. Aks holda, sayyoramiz halokatga uchraydi!

— Mening ixtirom?! — Ahmad quloqlariga ishongisi kelmasdi.

— Ha! Sening chizmalaring asosida kema yasay olsam, Quyosh sistemasidagi sayyoralarni o'rganib chiqishim va vatanim Salmirga qaytishim mumkin.

— Axir o'zingiz buning imkoni yo'q demaganmidingiz?!

— Bolakay, chizmalaringda xatoliklar ko'p. Ammo, tan olib aytilish kerak, sen judayam noyob kema-ni loyihasi-ni yarata olgansan. To'g'risi, hali bunga o'xshash qurilma galaktikada yaratilmagan bo'lsa kerak. Endi mening bilimlarim va sening zehningni birlashtirsak, bas. Kema uchun zarur ehtiyot qismlarni esa men uchib kelgan zaxira kapsuladan olishimiz mumkin.

Ahmad endi bu voqealarni tush bo'lsa kerak, deb o'ylay boshladi. U pakana odamga bildirmay, yopinchi-g'i ostidan qornini chimchilab ko'rdi: "Og'riq bor! Demak, bu tush emas", xayolidan o'tkazdi u.

— Agar sizga chizmalarimni bermasam-chi? — nihoyat Ahmad ham dadillashdi.

Pakana odam undan bunday munosabatni kutmagandi. U judayam xomush holda javob berdi:

— Agar chizmalaringni bermasang, salmirlilarning oxirgi umidi ham so'nadi. Bilsang, hozir Salmir sayyorasining 50 milliardlik aholisi taqdiri shu chizmalarga bog'liq bo'lib turibdi.

— Nega, tushuntiribroq gapiring?!

— Ahmad yotgan joyidan turib, pakana odamning yoniga kelib o'tirib oldi.

— Mana, yuz yildirki, Salmir sayyorasining yadrosi so'na boshlagan. Shu tufayli sayyoramiz tabiati ham o'zgarib ketdi. O'simliklar qovjirab, dengiz va daryolar quriy boshladi. Atmosferada kislorod yetishmay qoldi. Hatto toza havoni ham sun'iy ravishda hosil qilyapmiz. Salmirliliklar turli kasalliklarga chalinib halok bo'lishmoqda. Ahvol shu zaylda davom etib, yadro butunlay so'niq bo'lsa, sayyoramizdagi hayot ham yo'q bo'lib ketadi! Bizning Quyosh sistemasiga uyushtirgan ekspeditsiyamizdan maqsad juda noyob bo'lgan N<sub>2</sub>G kristalini qidirib topish edi. N<sub>2</sub>G sizlar olmos deb ataydigan kristallga o'xshab ketadi. Biz bu kristallni sayyoramiz yadrosiga tashlashimiz kerak. Olimlarning aytishicha, N<sub>2</sub>G yadrodagi moddalar bilan reaksiyaga kirishib, uni jonlantirib yuborish xususiyatiga ega. Shuning uchun uni izlab topishimiz zarur.

Ahmad geologiya va astrofizika fanlaridan ham chuqur bilimga ega edi. Shuning uchun u sayyora yadrosining so'nishi qanday oqibatlariga olib kelishini yaxshi bilardi. U bir zum xayolidan yadro haqidagi bilganlarini o'tkaza boshladi.

\*\*\*

Yadroni tushunish uchun eng yaxshi misol tuxum sarig'idir. Agar qaynatilgan tuxumni qoq o'rtasidan kesib qaralsa, markazda tuxum sarig'i turganini ko'ramiz. Xuddi shunday Yerni ham o'rtasidan kesish mumkin bo'lganida edi, odamlar markazdagi yadroni ko'ra olgan bo'lishardi.

Sayyora yadrosi suyuq holdagi qaynoq erigan metall va boshqa turli

moddalardan tashkil topgan. U xuddi Quyosh kabi lovullab turadi. Yadrolar sayyoralarning markazida joylashadi. Masalan, Yer yadrosi bizdan 2 900 km chuqurlikda joylashgan bo'lib, harorati 6000°C issiqlikda. Boshqacha aytganda, sayyoramiz yadrosi Quyoshning yer ostidagi kichkinagina ko'rinishini eslatadi.

Yadroni Yerning energiya manbai deb atash mumkin. Chunki u Yerdagi haroratni mo'tadil tutib turadi. Yer silkinishi, tog'larning hosil bo'lishi, vulqon otilishlari shu yadro tufayli sodir bo'ladi. Yadro yana yerning ko'zga ko'rinmas magnit maydonini hosil qiladi. Bu magnit maydoni Yer atmosferasini Quyoshdan keladigan turli zararli nurlar — radioaktiv bo'ronlardan himoya qilib turadi. Agar shu magnit maydoni yo'q bo'lib qolsa, atmosferamiz yemirilib, kislorod, ya'ni toza havo ham yo'q bo'lib ketadi. Yerdagi hayot esa kislorodsiz bir daqiqa ham davom etmaydi...

\*\*\*

Ahmad o'z xayollaridan o'zi qo'rqib ketdi. "Nahotki, pakana "odam"ning gaplari rost bo'lsa?! Agar shunday bo'lsa, butun sayyora aholisi qirilib ketadi-ku! Yo'q, bu "odam"ga yordam berish kerak!", deb o'yladi u.

— Mayli, chizmalarni sizga berganim bo'lsin...

\*\*\*

Salmirliliklar qidirayotgan N<sub>2</sub>G kristali o'timishda yashagan yerlik olimlar uchun ham begona emas. Sarguzasht ertaklarni yoqtiradigan bolalar falsafa toshi haqida ko'p eshitgan bo'lishlari kerak. Ertaklarda falsafa toshi har qanday moddani oltinga aylantira olishi haqida aytiladi. Xullas, qissamizdagi N<sub>2</sub>G kristali va afsonaviy falsafa toshi ayni bir narsa.

Tarixda hatto olimlar ham bunday toshning borligiga ishonishgan. Juda boy bo'lishni xohlagan podshohlar esa olimlarga afsonaviy toshni topishni buyurgan. Bunday olimlarni alkimyoglar deb atashgan.

Alkimyoglar tarixiy laboratoriyada tuxum sarig'iga toshbaqa kosasining kukunini yoki quritilgan qurbaqa ko'ziga qalampir va kumush kukunini aralash-tirib noma'lum moddani, ya'ni falsafa toshini tayyorlashga uringan. Afsuski, ular qanchalik harakat qilishmasin, bu toshni yarata olishmagan.

Biroq bu ixtirochi olimlar o'zlari bilmagan holda ajib kashfiyotlarga sababchi bo'lishgan. Tajribalar mobaynida turli shifobaxsh dorilar va kimyoviy moddalar yaratilgan. Mishiak, fosfor, rux, surma, vismut kabi kimyoviy elementlar ham falsafa toshini qidirayotgan alkimyoglar tomonidan kutilmaganda kashf qilingan. Ma'lumotlarga qaraganda, hatto buyuk olim Isaak Nyuton ham falsafa toshini qidirib, alkimyo bilan shug'ullangan.

Sa'dulla QURONOV

(Davomi keyingi sonda.)



# O'zbekistonda nega shaxmat musobaqalari kam?

Sportchini, jumladan, shaxmatchini musobaqa toblaydi! Shu yil yanvarida 12 yosh-u 7 oy-u 17 kunlik bo'lganida xalqaro grossmeyster normasini bajariib, shaxmat tarixida eng yosh grossmeyster bo'lganlar ro'yxatida bizning Javohir Sindorovni 3-o'ringa tushirib, 2-o'ringa ko'tarilib olgan hindistonlik Gukesh Dommaraju (2006-yili tug'ilgan) 2017-yil oktyabrda Kuala-Lumpurdagi turnirda ilk bor xalqaro master (IM) talabini bajargandan so'ng 2019-yil yanvarida Dehli shahrida kechgan xalqaro turnirda uchinchi marta xalqaro grossmeyster normasini bajargunga qadar 13 davlatda o'tkazilgan 30 ta turnirda 276 o'yin o'tkazgan! 15 oy davomida!

Endi qiyoslang: Nodirbek Yoqubboyev, Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov va Shamsiddin Vohidov — o'zbek shaxmati kelajagi deb qaralayotgan iste'dodlarimiz oxirgi bir yil davomida nechtadan shunday nafuzli musobaqada ishtirok etdi? Hech birining ko'rsatkichi 10 tadan oshmasligi aniq! Chunki xorijda bo'layotgan katalar o'rtasidagi musobaqalarga na Shaxmat federatsiyasi, na jismoniy tarbiya va sport vazirligi bir so'm ham ajratmaydi!

Ular ota-onalari, yaqinlari hamda ming mashaqqat bilan topgan homiylari yordamida xorijda bo'layotgan xalqaro musobaqalarga borib, natijaga erishib, reytinglarini yaxshilab borishmoqda. Ular izidan kelayotgan iste'dodli yoshlarimiz-chi? O'zbekistonda xalqaro musobaqalar kam o'tkaziladi, xorijga borishga hammaning ham qurbi yetavermaydi. Yilda bir bo'ladigan bolalar va o'smirlar o'rtasidagi qit'a va jahon chempionatidagina o'ynash bu yoshlarning shaxmatchi sifatida yanada o'sishi, reytingini ko'tarishi uchun yetarli emas! (Bu yil jahon chempionatiga borishlari ham so'nggi vaqtgacha so'roq ostida qoldi. Samarqandlik Guldona Karimova(12 yosh qizlar) va Komron Karimov(10 yosh o'g'il bolalar) O'zbekiston chempioni bo'lsa-da, borolmayapti!).

"Chess results.com" saytiga kirib "O'zbekiston" (UZB) tugmachasini bossangiz, mamlakatimizda o'tgan bir yil davomida sanoqli shaxmat musobaqasi o'tganiga shohid bo'lasiz. Shundan 1 tasi yoshlar o'rtasida Osiyo chempionati, 2 tasi erkaklar va ayollar o'rtasida Respublika chempionati, qolganlari ham jahon va Osiyo shaxmat federatsiyalari tomonidan o'tka-

ziladigan chempionatlar. Shu paytgacha bitta xalqaro turnir (G.A'zamov xotira turniri) respublika shaxmat federatsiyasi tomonidan o'tkazilardi. So'nggi ikki yilda "Qarshi open" qo'shildi bu qatorga. Xo'sh, bu ko'pmi, ozmi?

Qayd etilgan saytga kiritib, Yevropaning kichkinagina Chexiya Respublikasi (CZE) shaxmat "maydoni"ga nazar tashlaymiz. 29-iyuldan 2-avgustga qadar 4 kunda 20 dan ziyod musobaqa tashkil etilgan. Bir yilda o'tkazilgan turnirlar soni esa havas qilgulik.

Eh-e, bu Yevropa bo'lsa,

olinishga da'vogarlik qilayotgan O'zbekistonda nega ahvol bunaqa?

Birinchidan, O'zbekistonda mamlakat chempionatlaridan tashqari ommaviy turnirlar deyarli tashkil etilmaydi. Xorijiy davlatlarda deyarli barcha turnirlar shaxmat klublari tomonidan homiylar hisobidan tashkil etiladi. Bizda esa klublar tomonidan faqat kichik-kichik blits, rapid turnirlari o'tkaziladi. Xalqaro va Respublika turnirlari o'tkazishga Federatsiya negadir jon kuydirmaydi.

Ikkinchidan, viloyatlarda reyting musobaqalari deyarli o'tkazilmaydi ("Toshkent bahori, ...yozi, ...kuzi, ...qishi" — boryo'g'i 4 ta reyting turniri bor).

Uchinchidan, shaxmat klublari faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, ularga Shaxmat federatsiyasi ko'magi sezilmaydi. Klublarni moddiy, metodik va tashkiliy ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

To'rtinchidan, Respublikada ustoz shaxmatchilar, grossmeysterlarga yetarlicha e'tibor



ular bilan tenglashib bo'ladimi dersiz!

Keling, unda "Chess results"dan qo'shnimiz, aholisi bizdan deyarli 2 barobar kam bo'lgan Qozog'istondagi holat bilan tanishib ko'raylik. Keyingi 13 kun davomida (19-iyuldan 2-avgustga qadar) bu davlatda 40 dan ortiq musobaqa o'tkazilgan. Boshqa davlatlarda ham har yili yuzlab turnirlar tashkil etiladi.

Natijada yosh iqtidorli shaxmatchilarimiz xalqaro masterlik, xalqaro grossmeysterlik normalarini xorijiy davlatlarda borib bajariib kelmoqdalar, mahoratlarini oshirish uchun o'z hisobidan davlatma-davlat kezip yurishga majbur bo'lmoqdalar.

Shaxmat vatani deya tan

berilmaydi. Natijada ular katta shaxmatga qadam qo'ygach, Respublikani tark etmoqdalar. Jumladan, Dmitriy Qayumov, Sergey Qayumov, Anton Filipov, Temur Gareyev, Temur Qo'yoqarov singari xalqaro grossmeysterlar chet davlatlarga ketib qolgan.

Xullas, tijorat turnirlarini ko'paytirish, homiylarni jalb etish, iqtidorli shaxmatchilarni qo'llab-quvvatlash, ularga mashg'ulot o'tish uchun chet davlatlardan tajribali grossmeysterlarni jalb etish, hududlarda shaxmat musobaqalarini ko'paytirish, shaxmat klublari faoliyatini qo'llab-quvvatlashda O'zbekiston shaxmat federatsiyasining rolini kuchaytirish lozim.

Husan KARVONLI

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida tashkil etilgan "Quvnoq startlar" sport musobaqasining respublika(final) bosqichi Farg'ona viloyati Quva tumanidagi chet tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatda o'tkazildi.

## "Quvnoq startlar"ning respublika bosqichi g'oliblari taqdirlandi



Mazkur sport musobaqasining Respublika final bosqichi hududiy saralash bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 8 ta jamoa qur'a tashlash natijasiga ko'ra, ikki guruhga bo'linib o'zaro bellashdi. Guruhda 1-2-o'rinlarni egallagan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Samarqand, Farg'ona viloyatlari jamoalari yarim finalda kuch sinashdi.

Finalda yarim final bosqichida g'olib bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Farg'ona viloyati jamoalari bellashdi.

Yakuniy natijalariga ko'ra, 1-o'rinni Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi 32-maktab-

ning "Uchqun" jamoasi qo'lga kiritdi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanidagi 1-maktabning "Akmang'it" jamoasi 2-o'rinni egalladi. Musobaqaning 3-o'rtiniga esa Jizzax viloyati Zarbdor tumanidagi 9-maktabning "Yoshlik" va Samarqand viloyati Urgut tumanidagi 3-maktabning "Chinor" jamoalari sazovor bo'ldi.

Musobaqaning g'olib va sovrindorlari Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati markaziy ke-ngashi tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

MUXBIRIMIZ

## Mag'lubiyatga ham tayyormisiz?

O'zbekiston bayrog'ini jahon maydonlarida yuksaklarga ko'tarayotgan sportchilarimiz kundan kun ko'paymoqda. Ularning bunday ijobiy natijalarga erishishida, albatta, davlatimiz tomonidan sportga qaratilayotgan e'tibor, ustozlar mehnati, ota-ona rag'batlari tayanch bo'lmoqda.

Sportchining oldida hamisha ikki yo'l turadi. Muvaffaqiyat va mag'lubiyat. Shu bois u kurashga nafaqat jismonan, balki ruhan ham tayyorgarlik ko'rishi kerak. Buning uchun maktabdagi jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarga sport psixologiyasini o'tish joiz deb hisoblayman. Aytaylik, biror milliy yoki xalqaro musobaqaga tayyorgarlik ko'rayotgan bolaning o'z murabbiyi bo'ladi. Murabbiy uni jismonan tayyorlayotgan chog'da jismoniy tarbiya o'qituvchisi ham bu tayyorgarlikka o'z ulushini qo'shib, o'quvchining ruhiy tayyorgarligini oshirishi lozim. G'alaba va mag'lubiyatni haqiqiy sportchilarga xos tarzda to'g'ri qabul qilish, jahli chiqqanida o'zini boshqara olish, hissiyotlarni jilovlay bilish, raqibga iliq munosabatda bo'lish, g'olib yoki mag'lub bo'lgan raqibini hurmat qilishni ularga mohirona psixologik usulda o'rgatish joiz. Ana shunda yurtimiz sha'nini himoya qilayotgan o'g'il-qizlarimiz jahon arenasida o'zbekning asl fazilatlarini ham namoyon qilgan bo'ladi.

Rustam AHMEDOV,  
G'ijduvon tumanidagi 41-maktabning  
jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi



# «Barkamol avlod» uchun yetarli sharoit kerak

Samarqand viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazida ayni paytda 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 840 nafar o'quvchi texnik, badiiy ijodiyot, o'lkashunoslik va ekologiya yo'nalishlaridagi 48 ta to'garakda ko'nikmalarini boyitmoqda.



Shuningdek, markaz tomonidan viloyatdagi mehribonlik uylari, maktab-internatlarning 200 dan ortiq tarbiyalanuvchisi uchun muassasalarning o'zida to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu yerda 68 nafar xodim mehnat qilmoqda.

Markazning aviamodel, shaxmat, doirachilar to'garaklari a'zolari mamlakat miqyosidagi ko'rik-tanlov va musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

— Iqtidorli o'quvchilar ko'p, faqat ularni o'z vaqtida rag'batlantirib, iste'dodini rivojlantirish uchun yetarli sharoit yaratib berish zarur, — deydi markaz direktori Mahliyo Mardiyeva. — Markazimiz 2011-yilda to'liq qayta jihozlangan. O'tgan davr mobaynida ba'zi jihozlar eskirib,



murojaatlar ko'p. Afuski, ularning talabiga mos to'garak tashkil qilishning imkoniyati bo'lmayapti. Chunki biz taklif qilayotgan oylik maoshga mazkur yo'nalishda yetarli malakaga ega bo'lgan mutaxassislar ishlashni xohlamaydi. Bundan



tashqari, chet tillar va sport yo'nalishida ham shu ahvol.

Darhaqiqat, markaz o'quvchilar bilan gavyum. Faqat...


Gimnastika to'garagi mashg'ulotlari o'tkazilayotgan xonada yetarli sharoit mavjud emas. Moslashtirilgan xonada mashg'ulotlarni to'liq amalga oshirishning imkoniyati yo'q. Ammo belgilangan tartib bo'yicha markazlarda sport yo'nalishidagi to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, markazda ayni paytda ingliz, rus tillari bo'yicha to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ota-onalar boshqa tillar bo'yicha ham to'garaklar tashkil etish taklifini bildirishgan. Yuqori-

da ta'kidlanganidek, malakali mutaxassislar yetishmasligi hamon muammo-  
ligicha qolmoqda.

Bundan tashqari, axborot-resurs markazi ham adabiyotlar bilan yetarlicha ta'minlanmagan. Mutaxassis Hurriyat G'ulomovanning ta'kidlashicha, ayni paytda mavjud 3 356 ta kitob fondining asosiy qismi ma'nadan eskirgan adabiyotlardir. Bolalar uchun mo'ljallangan ertak kitoblari, xorijiy tillarga oid adabiyotlar va lug'atlarga talab katta.

Mutasaddilar, mas'ullar bu muammolarga maqbul yechim topishlariga ishonamiz.

Alisher ISROILOV  
(O'ZA) olgan suratlar.



## Marifat

### TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

### Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149, 150. G-829. Tiraj 11750.  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,  
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

### TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;  
kotihiyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqirz qilinmaydi va mual-lifga qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

### MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
Navbachi muharrir: Asolat Ahmadqulova.  
Navbachi: Faxriddin Rahimov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.  
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'ZA yakuni — 21.50 Topshirildi — 23.25

123 56